

DINDA SAVOLIM BOR...

birinchi kitob

Musanniflar:
Muhammad Sharif Juman
Ahmad Muhammad

«Movarounnahr» nashriyoti
Toshkent – 2004

MUQADDIMA

Bismillahir rohmanir rohim.

Buyuk Xoliqimiz va Parvardigorimiz Alloh subhanahu va taologa behisob hamdu sanolar bo'lsin! Sarvari koinot - Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga, u zotning ashoblari va ahli baytlariga salovotu durudlar bo'lsin!

Odamzod tug'ilganidan to umrining nihoyasigacha bilim olishga, o'rganishga, tajriba orttirishga, anglashga muhtoj. U ana shu yo'lda Alloh taolo Qur'oni karim orqali ato etgan ilmlarni o'rganishga kirishadi. Uning Rasuli Muhammad (s.a.v.) keltirgan ilmlar ummonidan bahramand bo'lmoqqa intiladi. U ana shu yo'lda solih salaflar, ulug' allomalarning izidan borishga rag'bat ko'rsatadi. Insoniyat Alloh taoloning so'nggi, komil, haq dini – Islomga doir, uning asoslari, arkonlari, ibodatlariga oid ilmlardan yaxshi xabardor bo'lishga ko'proq muhtoj. Chunki Islomning tub mohiyatini, uning shariatini anglamay, bilmay saodatga erishib bo'lmaydi. Shu boisdan dinimizda ilm olishga, bilmagan narsalarini so'rab, din asoslarini va ibodat tartiblarini o'rganishga katta e'tibor bilan qaralgan.

Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat etadi: **«Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja – martabalarga ko'tarur»** (Mujodala surasi, 11-oyat). Alloh taolo yana aytadi: **«Allohdan bandalari orasidagi olim-bilimdonlarigina qo'rqur»** (Fotir, 28).

Hadisi shariflarda ham ilm olish, so'rab-o'rganishning fazilatlari keng bayon etilgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ummatga beshikdan qabrgacha ilm izlamog'ni vasiyat qilganlar. Yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: «Kimga Alloh yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih (teran anglovchi) qilib qo'yadi va unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi». (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati).

Alhamdulillah, musulmonlarimiz bugungi kunda Allohning amr-farmonlariga, Uning Rasuli sunnatiga amal qilib, dinlarini teranroq anglash, shariatni chuqurroq tushunish yo'lidan borishyapti. Keyingi yillarda masjid imomlariga berilayotgan, gazeta va jurnallarning tahririyatlariga kelayotgan dinimizga doir savollarning ko'payib borayotgani ham shunga dalolat! Qo'lingizdagi bu kitobga musulmonlarimizdan kelgan Islom dini, shiati, ibodatlari, axloqiga doir yuzlab savollarga javoblar asosida tartib berildi. Javoblarni tayyorlashda Qur'oni karim va tafsirlari, hadisi shariflardan, Movarounnahr

diyorida ma'lum va mashhur bo'lgan «Hidoya», «Muxtasar ul-viqoya», «Jomi' ur-ramuz», «Hazonat ul-fiqh», «Majmuat ul-fatovo», «Halabi sag'ir», «Sharhi avrod», «Radd ul-muxtor», «Sirojiyya», «Hadiyyat us-su'luk» «Mabsuti Saraxsiy», «Halabi sabir», «Minhoj us-solihin», «Fatavoi Jung», «Sharhi Ilyos», «Fatavoi Hindiyya», «Ayollar fiqhi», «Sharhi fiqh ul-akbar» va boshqa ko'pgina fiqh kitoblari, mazhabboshimiz Imom A'zam asarlaridan foydalanildi. Zarur o'rinlarda ana shu manbalar ko'rsatib o'tildi.

Ushbu kitob ana shunday savol-javoblar jamlangan risolalarning birinchisi. «Fikr-media» jamiyati bu tajribani kelgusida davom ettirish va shu kabi savollarga mutaxassislar javoblarini muntazam chop etishni rejalab turibdi. Savollarni quyidagi unvonimizga yuboring: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Komil Yormatov ko'chasi, 14-uy. «Fikr-media» MChJ. Elektron pochta: fikrmedia@list.ru

Savol: Yaqinda Qur'on o'qishni o'rganib oldim. Uni xatm qilish muddatlari, uni tilovat qilish maqbul bo'lgan o'rinlar haqida bilmoqchi edim.

Javob: Qur'on o'quvchi kishi tilovatni tark qilmasligi, bu ishda bardavom bo'lishi lozim. Salaf ulamolarimizning Qur'onni xatm qilish odatlari turlicha edi. Ba'zilari ikki oyda, ba'zilari har oyda, boshqalari har o'n, sakkiz yoki yetti kunda Qur'onni xatm qilib turishardi. Ko'pchilikning odati shu edi. Olti, besh, to'rt yoki uch kunda xatm qiluvchi ulamolar ham bo'lgan.

Qur'on o'qishni qachon boshlab qachon xatm qilish vaqti qorining ixtiyoridadir. Masalan, Usmon roziyallohu anhu bir haftalik xatmlarida juma kechasi boshlab, payshanba kechasi tugatar edilar. Abu Homid o'azzoliy «Ihyou ulumid-din» kitoblarida: «Xatmlarning afzali tungi xatm va kunduzgi xatm. Kunduzgi xatm dushanba kuni bomdod namozining ikki rakatida yoki undan keyin tugatiladi. Tungi xatm juma kuni shom namozining ikki rakatida yoki undan keyin tugatiladi», deb aytganlar.

Qur'on qiroati uchun eng yaxshi vaqt namozdagi vaqtdir. Namozdan tashqari qiroat esa, kechasi bo'lgani yaxshiroq. Kechaning ikkinchi yarmida bo'lgani avvalida bo'lganidan yaxshiroq. Shom va xufton orasidagi tilovat ham suyuqlidir. Ammo kunduzgi tilovatlarning eng yaxshisi bomdod namozidan keyingisidir. Qaysi vaqt bo'lmasin, Qur'on tilovat qilishning karohiyati yo'q. Hatto namoz o'qish man qilingan paytlarda ham tilovat qilinaveradi.

Yolg'iz xatm qiluvchi qori xatmni namozda tugatishi mustahabdir. Ammo namozdan tashqarida ko'pchilik bo'lib xatm qilish kecha yoki kunduzning avvalida bo'lgani yaxshi. Xatm kunida ro'za tutish ham mustahab. Faqat man qilingan kunlarda ro'za tutilmaydi. Tobeinlardan Talha ibn Musarraf, Musayyib ibn Rofi' va Habib ibn Abu Sog'itlar Qur'onni xatm qiladigan kunlari ro'zador bo'lur edilar. Xatm majlislarida Qur'on o'qishni biladiganlar ham, bilmaydiganlar ham hozir bo'lishi mustahabdir.

Qatoda, rahmatullohi alayh, aytadilar: «Anas ibn Molik roziyallohu anhu qachon xatm qilsalar (ya'ni, Qur'oni karimni o'qib tugatsalar), ahli ayollarini to'plab, duo qilardilar». Hakim ibn Utbadan qilingan sahih rivoyatda u kishi aytadilar: «Menga Mujohid bilan Abda ibn Abu Lubobani yuborishibdi. Ular, biz Qur'onni xatm qilishni xohlaymiz, chunki Qur'on xatm qilinganida duolar ijobat bo'ladi, deb aytishdi» (Ibn Abu Dovud rivoyati).

Ba'zi sahih rivoyatlarda: Qur'on xatm qilinganida rahmat yog'ilib turadi, deb aytilgan.

Qur'on xatm qilinganida tazarru' va iltijo bilan, qabul bo'lishiga ishongan holda duo qilish mustahabdur.

Humayd A'raj roziyallohu anhu aytadilar: «Kim Qur'on o'qib, so'ngra duo qilsa, uning duosiga to'rt ming farishta omin, deb turadi» (Doramiy rivoyati).

Abu Muso Ash'ariydan, roziyallohu anhu, rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Qur'onni yodlaganingizdan keyin mahkam tutinglar. Allohga qasamki, Qur'on argoni yechilgan tuyadan ham tezroq qochadi», dedilar (Buxoriy va Muslim rivoyatlari).

Anasdan, roziyallohu anhu, rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Menga ummatimning savoblari ko'rsatildi. Ular orasida kishi masjiddan chiqarib tashlagan axlat (uchun berilgan savob) ham bor edi. Yana menga ummatimning gunohlari ko'rsatildi. Bir kishiga Qur'ondan biror sura yoki oyatni yodlash nasib etgach, so'ng uni unutib yuborganidan kattaroq gunohni ko'rmadim», dedilar (Abu Dovud va Termiziy rivoyatlari).

Savol: Qur'on tilovat qilishning ham alohida odoblari borligini eshitdim. Ular qaysilar?

Javob: Qur'on o'quvchi tilovat odoblariga ahamiyat berishi lozim. Avvalo, qiroatda ixlosli bo'lish va bu bilan faqat Allohning roziligini talab qilish, Qur'on xulqi bilan xulqlanish, zehnni bir joyga qo'yib, undagi ma'nolarni tadabbur qilish talab etiladi. Qur'on o'qiyotganida Allohga qullik qilayotganini bilishi va Uni ko'rib turgandek o'zini his qilishi, Alloh uni ko'rib turganini zehniga joylashi lozim.

Qur'on tilovat qilishni xohlagan kishi og'zini misvok va shunga o'xshash narsalar bilan tozalashi yaxshi bo'ladi. Misvok arak daraxti shoxidan bo'lgani yaxshiroq. Boshqa narsalar bilan tozalashning zarari yo'q.

Qur'onni xushu-xuzu' va tadabbur bilan o'qish lozim. Shunda qalb yumshab, nurga to'ladi. Salaf ulamolarimiz ichida tadabbur qilib bir oyatni tun bo'yi o'qib chiqqanlar bor.

Qur'on o'quvchi tilovat chog'i yig'lashi, agar yig'lay olmasa, o'zini yig'lashga majburlashi mustahabdir. Bunday qilish oriflar sifati va solih bandalarning shioridir. Bunga Qur'oni karimda: «Ular yig'lagan hollarida yuzlari bilan yiqilurlar va bu (Qur'on) ularning xushu'larini (xokisorliklarini) ziyoda qilur» (Al-Isro, 109), degan dalil bor.

Qur'on tilovat qiluvchining Qur'onni kitobdan o'qishi yoddan o'qiganidan afzaldir. Salaf ulamolarimiz shunday deyishgan. Ammo kimning tadabburi, fikrlashi, qalbini jamlashi Qur'ondan o'qiganidan ko'ra yoddan o'qiganida ziyodroq bo'lsa, yoddan o'qigani afzaldir.

Baland ovozda yoki ovoz chiqarmay tilovat qilish haqida ham ulamolarning so'zlari bor. Riyodan qo'rqqan kishi ovozini chiqarmay o'qigani afzal. Agar qo'rqmasa, baland ovoz bilan o'qigani yaxshi. Shu shart bilanki, atrofida gilar namoz o'qiyotgan bo'lmasligi kerak. Baland ovoz bilan o'qiganida boshqalarga ham foyda bor.

Chiroyli ovoz bilan, tajvid bilan tilovat qilinadi. Juda cho'zib yuborilmaydi. Biror harf ziyoda qilinishi yoki tushirib qoldirilishi harom.

Tilovat qiluvchi kishi suraning o'rtasidan o'qimoqchi bo'lsa, bir-biriga bog'liq oyatlarning avvalidan boshlashi kerak. To'xtatganida ham bir-biriga bog'liq oyatlarda to'xtaydi. Boshlanishi, vaqf, juz', hizb, o'ndan biri deb e'tibor qilmaydi. Shuning uchun ulamolar: «Bir suraning hammasini o'qishi uzun suradan bir miqdor o'qiganidan afzal», deyishgan.

Anasdan, roziyallohu anhu, rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Bir kecha va kunduzda ellik oyat o'qigan odam g'ofillar qatorida yozilmaydi, yuz oyat o'qigan kishi kechani ihyo qilib, Allohning ibodatida uzoq turuvchi, deb yoziladi, ikki yuz oyat o'qigan kishi bilan Qur'on qiyomat kuni hujjat talashmaydi, besh yuz oyat o'qigan odamga esa, bir necha qintor ajr yoziladi», dedilar (Ibn Sunniy rivoyati).

Savol: Qur'on suralarining qanday fazilati va xosiyati bor?

Javob: Abu Hurayradan, roziyallohu anhu, rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim bir kecha-kunduzda Allohning roziligini talab qilib, Yosin surasini o'qisa, gunohlari kechiriladi», dedilar.

Boshqa bir rivoyatda: «Kim kechasi Duxon surasini o'qisa, gunohlari kechirilgan holatda tong ottiradi», deyilgan.

Ibn Mas'uddan, roziyallohu anhu, qilingan rivoyatda esa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim har kecha Voqea surasini o'qisa, unga kambag'allik yetmaydi», deganlar.

Abu Hurayradan, roziyallohu anhu, rivoyat qilinadi. Payg'ambarimiz alayhissalom: «Kim kechasi «Iza zulzilatil arzu...» surasini o'qisa, Qur'onning yarmini o'qigandek bo'ladi, kim «Qul ya ayyuhul kafirun»ni o'qisa, Qur'onning to'rtidan birini o'qigandek bo'ladi, kim «Qul huvallohu ahad»ni o'qisa, Qur'onning uchdan birini o'qigandek bo'ladi», dedilar.

Savol: Qur'on xatm qilingach, qorilar Oyatul kursiyni, Baqara surasining oxirgi oyatlarini va boshqa oyatlarni qayta o'qishadi. Buning shar'iy asosi bormi?

Javob: Bunday qilishga shar'iy asos yo'q. Aksincha, «Itqon» kitobida bunday qilish odobsizlik, deyilgan.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hazrati Bilolni, roziyallohu anhu, Qur'oni karim oyatlarini terib o'qishdan qaytarganlar (Abu Dovud). «Naf'ul muftiy» kitobida bu odat makruh deyilgan.

Savol: Hofizi Qur'on va homili Qur'on o'rtasida qanday farq bor?

Javob: Xalq orasida «Qur'onni yodlagan» va «Qur'onni ko'targan» iboralari bir xil, ya'ni, «Qur'onni kitobga qaramasdan yoddan o'qiy oladi», degan ma'noda qo'llanadi. Ammo hadis istilohida va salafi solihinlar so'zlarida yodlagan (hofiz) bilan ko'targan (homil) o'rtasida katta farq bor. Ular hofiz deb Qur'on oyatlarini yoddan o'qiguvchini aytsalar, homil deb Qur'onni yoddan o'qish bilan birga, ma'nolarini tushunib, uni hayotiga tatbiq etgan, unga amal qilgan kishini nazarda tutadilar.

Savol: Qur'on oyatlari ma'nosini bilmasdan yodlasa bo'ladimi?

Javob: Bo'ladi. Chunki yodlashga kirishayotganlar ko'pincha yosh bolalar bo'lib, ularga oyat ma'nolarini anglatish ancha mushkul. Biroq Qur'on tajvidini mukammal o'rgatmoq lozim. Chunki tajvidsiz Qur'on o'qish gunoh. Bundan tashqari, arabcha talaffuzga yoshlikda tilni yaxshi o'rgatib olish kerak. Yosh ulg'aygach, har qancha urinsa ham harflarni maxrajidan chiqarish qiyin bo'ladi.

Qur'on yodlatuvchi ustoz talabalarga ilm o'rganish farz amali ekanini, Qur'on ma'nolarini bilib, hayotda unga amal qilish zarurligini tinimsiz uqtirib bormog'i lozim.

Savol: Mushaf bilan fol ko'rish mumkinmi?

Javob: «Jomiur-rumuz» kitobida «Mushaf (Qur'on) bilan fol ko'rish makruh», deyilgan. Ali al-Qori esa bu ishdan man' qilganlar.

Savol: Qur'oni karimni tahoratsiz ushlasa bo'ladimi?

Javob: Islom shariati Allohning kalomi, ilohiy dastur hisoblangan Qur'oni karimni nihoyatda hurmatlashni, hatto uning oyatlari yozilgan qog'ozlarni ham nojoiz joylarga tashlamaslikni buyuradi.

Qur'oni karimni shuning uchun betahorat kishilar, musulmon bo'lmagan kishilar, hayz va nifos ko'rayotgan ayollarga ushlashga ruxsat etilmaydi. Ammo Qur'oni karim yoki uning oyatlari oyoq ostida bo'lsa, tahoratingiz yo'q bo'lsa ham olib qo'yishlikka ijozat berilgan. Imom Buxoriy Qur'onni faqat mo'minlarga ushlaydilar, deb tafsir qilganlar. Lekin Qur'oni karim tafsirlari (ma'nosi, sharhi) va tarjimalarini betahorat ushlashga ruxsat etilgan.

Kitoblar taxlanganda Qur'oni karim, uning ma'lum qism va poralari barcha kitoblarning eng ustida turadi. Undan keyin Qur'on tafsirlari, hadis kitoblari, fiqh kitoblari va boshqalar joylanadi.

Qur'oni karim va tafsirlarini foydalanib bo'lish bilanoq tokchalarga va kitob javonlariga olib qo'yish kerak. Qur'on, fiqh kitoblari turgan tomonga oyoq uzatib yotish mumkin emas, makruh hisoblanadi. Qur'onga behurmatlik ko'rsatgan, ya'ni uni tepkilagan, hukmlarini yolg'onga chiqargan yoki masxaralagan kishilar kofir, deb hukm qilinadi.

Savol: Alloh taoloni «haqiqiy tanish»ni sharhlab berishingizni iltimos qilaman.

Javob: Alloh taoloning sherigi yo'q. U barcha aybu nuqsondan pok va ushbu komil sifatlariga ega zotdir:

1. Hayot - Alloh taolo azalu abad tirikdir. Tirikligi biz kabi emas.
2. Quadrat - Alloh taolo xohlagan narsasiga qodirdir.
3. Ilm - Alloh taolo har bir narsani bilguchidir, Hech narsa uning ilmidan tashqarida emas.
4. Sam' - Alloh taolo eshitguchidir, eshitishi maxluqlar kabi quloq bilan emas.
5. Basar - Alloh taolo barcha narsani ko'rguvchidir. Ko'rishi bizning tasavvurimizdagi ko'z bilan emas.
6. Kalom - Alloh taolo so'zlaguvchidir. So'zlashi insonlarning so'zlashiga o'xshamas.
7. Iroda - Alloh taolo xohlagani bo'ladi. Nimaning bo'lishini xohlasa, bo'ladi. Nimaning bo'lmasligini xohlasa, bo'lmaydi.
8. Takvin - Alloh taolo yo'qdan bor qilguvchidir.

Shunday e'tiqodda bo'lish Alloh taoloni haqiqiy tanishdir («Aqoidi Nasafiya» kitobi asosida tayyorlandi).

Savol: «Alloh» o'rniga «Tangri» desa bo'ladimi?

Javob: Bizning ota-bobolarimiz musulmon bo'lishlaridan avval ham yaratuvchi zot borligiga ishonib yashar edilar. Har qavmning o'ziga xos diniy e'tiqodi mavjud bo'lgan. Turkiy xalqlar yaratuvchi zot sifatida «Tangri»ga ishonar edi. Bu so'z «ibodat qilinadigan zot» ma'nosida bo'lib, arab tilidagi «Iloh», frantsuzchadagi «Dieu», fors tilidagi «Xudo» va inglizchadagi «God» bilan ayni ma'noni ifoda qiladi. Ammo bu so'z Yaratuvchining butun asmoul husnasini (go'zal ismlarini) o'z ichiga olgan va ismi zot bo'lgan «Alloh» so'zining ma'nosini bera olmaydi. «Alloh» deganda qudrati butun koinotda aks etgan benazir bir zot tushuniladi. Ya'ni, u zot ma'budi mutlaq, xoliqi mutlaq, maqsudi mutlaq, razzoqi mutlaq bo'lgan Allohning xos ismidir.

«Tangri» deyilganda yunonliklar Zevsni, misrliklar Anis buqasini va hindlar o'zlarining sigirlarini tushunadilar. Shuning uchun ham bir inson «Alloh» o'rniga «Tangri»ni ishlatsa xato qilgan bo'ladi. Zero, bizning tangrimiz Alloh, ammo ilohimiz Tangri emas. Shu tufayli «La ilaha illalloh» deymiz, ammo «La Alloha illalloh» deya olmaymiz. Ko'rib turganimizdek, avvalo butun «ilohlar, tangrilar» inkor qilinib, so'ngra ma'budi mutlaq bo'lgan Alloh bordir, deyilmoqda.

«Mavludi sharif» muallifi Sulaymon Chalabiy bu ikki kalima orasidagi farqni quyidagi baytlarida juda chiroyli ifoda qilganlar:

«Birdir Alloh, undan boshqa Tangri yo'q».

Savol: Musulmon kishi dinining sakkiz usulini o'zida mujassam qilishi kerak ekan. Ular qaysilar?

Javob: O'zini musulmon deb bilgan har bir kishi quyidagi sakkiz asosga ega bo'lishi shart. Kimki bu asoslarni o'zida mujassam qilsa, bilingki, uning iymoni but, e'tiqodi mustahkamdir.

Birinchi, Tavhid usuli. Alloh taoloni yagona bilish va bu e'tiqodda mustahkam turish.

Ikkinchi, Adl usuli. Dunyoviy ishlarda va shariat ahkomlarida doimo to'g'ri yo'lda turmoq, doimo rost so'zlamok.

Uchinchi, Imomat usuli. Din va dunyo ishlari bir kelib qolganda avval diniy ishlarni bajarmoq.

To'rtinchi, Nubuvvat usuli. Payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.) va ul zotdan avval o'tgan barcha anbiyo va payg'ambarlarga iqrar bo'lmoq.

Beshinchi, Amru ma'ruf usuli. Alloh taolo Muhammad (s.a.v.) ummatiga amr etgan (farzu sunnat qilgan) narsalarga amal qilmoq.

Oltinchi, Nahyi munkar usuli. Alloh taolo man qilgan ishlardan saqlanish.

Yettinchi, Tavallo usuli. Allohning do'stlarini do'st tutmoq. Payg'ambarlar, sahobalar, Haq yo'ldagi e'tiqodi sof, iymoni mukammal bo'lgan barcha ulamolar, namoz va ro'zasini qazo qilmovchi, Uning amriga itoat etuvchi kishilar Allohning do'stlaridir.

Sakkizinchi, Tabarro usuli. Alloh taoloning dushmanlarini dushman tutmoq.

Savol: Imomimiz mav'iza chog'ida «Iymon bir necha xil bo'ladi», dedilar. Shu haqda batafsilroq tushuntirish berolmaysizmi?

Javob: Iymon turlari quyidagicha:

Iymon: Ishonish. Istilohda: qalb bilan iqrar qilib, til bilan tasdiqlashdir. Ya'ni, «La ilaha illallohu Muhammadur rasulullohu»ni yoxud «Ashhadu alla ilaha illallohu va ashadu anna Muhammadan 'abduhu va rosuluh» kalimalarini yurakdan tasdiqlab aytish bilan kishi iymonga musharraf bo'ladi.

Iymoni ijmoiy: Ijmoliy iymon. Ya'ni, Rasululloh (s.a.v.) tablig' etgan narsalarning hammasiga ishonish. Ya'ni, «Nima tablig' qilingan bo'lsa, jumlası (hammasi) haqdir», deb tasdiq etish.

Iymoni mufassal: Ishonish lozim bo'lgan narsalarning har birini alohida-alohida sanab tasdiqlash. Ya'ni: «Amantu billahi va malaikatihi va kutubihi va rusulihi val-yavmil axiri val-qodari xoyrihi va sharrihi min Allohi ta'ala val ba'si ba'dal-mavt» - «Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg'ambarlariga, oxirat kuniga va yaxshilik ham, yomonlik ham Allohdan ekaniga va o'lgandan so'ng qayta tirilishga ishondim».

Iymoni taqlidiy: Salgina shubhaga ham mag'lub bo'lib qoladigan, boshqalarga taqlid qilib keltirilgan iymon. Johillarga xos iymon ham deyiladi.

Iymoni tahqiqiy: Iymonga oid butun masalalarni yaqiniy suratda tadqiq bilan bilish va yashash: Haqiqatini bilib va his qilib iymon keltirish: Tahqiqiy iymondan dars beruvchi asarlarni sadoqat bilan o'qish natijasida taqlidiy iymon tahqiqiy iymonga aylanadi.

Iymoni ya's: Chorasiz qolgan, hayotidan umidsiz bo'lgan bir kimsaning iymoni.

Iymoni bi-l-oxiroat: Oxiratga, o'lgandan so'ng tirilishga, hashr va nashrga, jannat va jahannamga ishonish.

Iymoni billah: Allohga va Uning sifatlariga ishonish.

Savol: Shukr nima? Uning ma'nosi va ado etilishi qanday bo'ladi?

Javob: Yaxshilik qiluvchining yaxshiligini mamnunlik ila e'tirof etishni ulamolar «shukr» deyishgan. Ular shukrning uch qismdan, ya'ni, qalb shukri, til bilan shukr va amaliy shukrdan iboratligini ham bayon qilishgan.

Har bir inson o'zining barcha holi, kuch-quvvati, sog'-omonligi, boyligi, mansabi Allohdan ekanligini bilib, iqror bo'lishi qalb shukridir. Shukrning bu turi barchaga farzdir. Qur'oni karimda shunday marhamat qilinadi: «Sizlar erishgan barcha ne'matlar Alloh taolodandir» (Nahl, 53).

Til bilan shukr minnatdorlikda bo'lish va sano aytish bilan ado etiladi. Vaz-Zuho surasi oxirgi oyatining taqozosi shunday.

Toatlarni davomli ado etish va gunohlardan saqlanish amaliy shukrdir. Rasuli Akram (s.a.v.) namozda uzoq turishlari sababli muborak oyoqlari shishib ketardi. Buni ko'rgan sahobiyalar: «Yo Rasulalloh! Parvardigor sizni yorlaqagani shubhasiz. Shunday ekan, bu hol nechun?» deb so'raganlarida, Rasuli Akram (s.a.v.): «Shukrli banda bo'lmayinmi?» deb javob berdilar. (Imom Buxoriy). Bu va Oli Imron surasining 123-oyati mazmuniga binoan Allohdan qo'rqish, uning amru nahyilariga rioya etish bilan Alloh bergan ne'matlarning amaliy shukri keltiriladi.

Insonlarning o'zaro munosabatidagi shukr yaxshiliklarni yoqlash, ezgu ishda amaliy yordam ko'rsatish bilan ado etiladi.

Savol: Majusiylar kimlar, ular ham ahli kitob sanaladimi?

Javob: Avvalo ahli kitob kimlar ekanligini bilish zarur.

Shariatimizda Alloh taolo nozil etgan kitoblarga amal qilganlar «Ahli kitoblar» deb aytiladi. Binobarin, yahudiylar va nasroniylar ahli kitobdir. Yahudiylar «Tavrot»ga, nasorolar esa «Injil»ga amal qiladilar.

Qur'oni karim oyatlarida yahudiylar va nasroniylar ahli kitob, deb zikr etilgan. Qur'oni karimdan muqaddam Injil, Tavrot va Zabur nozil qilingandir. Ammo, hozir yer yuzida Zabur ta'limotiga ergashadigan xalq yo'q.

Majusiylarga kelsak, ular otashparast, butparast, sanamparast va jussaparast kishilardir («Hidoya»).

Majusiylarning samoviy kitoblari yo'q. Shuning uchun ular olov, quyosh, oy, ba'zi bir hayvonlar va yulduzlarni iloh deyishib, ularga sig'inishadi. Demak, majusiylar ilohiy kitoblarga ergashmaydigan qavmlardandir.

Ja'far ibn Muhammad rivoyat qiladilar. Umar ibn Xattob (r.a.) Payg'ambarimiz (s.a.v) sahobalarining oldilaridan o'tayotganlarida ularning ichida Abdurahmon ibn Avf (r.a) ham bor edi. Shunday dedilar: «Mana bu qavmlar bilan, ya'ni, majusiylar bilan nima qilishni bilmay turibman, bular arablardan ham va ahli kitoblardan ham emas» (Tafsiri Qurtubiy).

Majusiylar to'g'risida ulamolarimiz quyidagi hukmda yakdillar: «Majusiylar so'ygan hayvonlarning go'shti yeyilmaydi va ularning ayollariga uylanilmaydi, chunki ular ahli kitob emasdir».

Savol: Ba'zi kishilar haqida odamlarning: «falonchi jannatiy inson...», deb gapirganlarini (yoki do'zaxiy deb so'kkanlarini) eshitamiz. Shunday deyish to'g'rimi?

Javob: Bunday deyish noto'g'ri. Biz payg'ambarlarni, alayhimussalom va payg'ambarlar jannatiy deb bashorat qilgan mo'min odamlarnigina jannatiylar deya olamiz, xolos (Imomi A'zam, «Al-'alim val mutaallim»).

Savol: Shariatimizda guvohlik beruvchi kimsa «odil» bo'lishi kerak, deyiladi. Qanday sifatli kishi «odil» hisoblanadi?

Javob: Sudxo'rlik va o'zganing molini yeyish (o'g'rilik, poraxo'rlik) kabi yo'llar bilan og'zi bulg'anmagan, zino va unga boshlovchi ishlarga muhtalo bo'lmagan kishi shariatimizda «odil» hisoblanadi va guvohligi qabul etiladi. Bir so'z bilan aytganda odillik sifatiga ega bo'lish uchun qorin va jinsiy a'zoni haromdan saqlamoq lozim.

Savol: Yaqinda sobiq ulfatlarimdan bittasi betimga: «Kechagina men bilan aroq ichib yurgan odam bugun endi taqvodor bo'lib qoldingmi?! O'g'ri qarisa, so'fi bo'larkan-da?!» dedi. Dabdurustdan unga nima deb javob qilishni bilmay qoldim. Allohni men singari kech tanigan har bir odamning boshidan shunaqa savdo o'tsa kerak. Bunday paytlarda qanday muomala qilganimiz ma'qul?

Javob: Sobiq ulfatingizga o'xshash kimsalarning ta'na – dashnomlariga parvo qilmang. Aqlli kishi iymonga kirgan odamning o'tmishiga emas, buguniga e'tibor qiladi. Ya'ni, kecha uning aroq ichib yurganiga yoki buzuqchiliklar qilganiga emas, balki shunday buzuq va gunohkor odamning bugun iymon tufayli yaxshi tomonga o'zgarib qolganiga e'tibor beradi va bunda Allohning qudratini ko'rib qoyil qoladi.

Sobiq ulfatingiz kabi kimsalarni Allohning o'zi o'nglamasa, bandasi bas kelolmaydi. Chunki ularga gap uqtirib bo'lmaydi. Bizlarning qo'limizdan keladigani – ularga ham insof, tavfiq va iymon tilashdir. Shoyad Alloh taolo unday kimsalarning ham qalbini o'ziga moyil qilsa.

Iymonli kishi gapini uqadiganlarga gapirib, o'zini har qanaqa ta'nalardan baland tutib, toat-ibodatini qilib yuraverishi kerak. Chunki banda o'ziga o'xshagan bandalarning malomatidan emas, Alloh taoloning malomatidan qo'rqishi lozim. Shunda murod hosil bo'ladi.

Savol: Ba'zi joylarda «Bibi seshanba» degan marosim o'tkaziladi. Shu Islomda bor narsami?

Javob: Shariatimiz buyurgan marosimlar ichida «Bibi seshanba» degani yo'q. Ammo ayrim joylardagi «otinlar» surpa yozib, Bibi seshanbadan tilaklaringizni so'ranglar, deb buyurishadi. Bu mutlaqo dinimizga zid. Sababi – tilak va iltijo Bibi seshanbaga emas, Allohga qilinadi. Faqat Allohgina gunohlarni kechadi, hojatlarni ravo qiladi.

Tabaroniyni «Al-muj'amul kabir» kitoblarida shunday yozilgan: Rasululloh (s.a.v.) zamonlarida mo'minlarga ozor berish bilan mashhur bir munofiq bor edi. Abu Bakr Siddiq (r.a.) bir kuni: «Turinglar, Rasululloh (s.a.v.)dan bizni bu munofiqdan qutqarishlarini so'raylik», deganlarida Rasululloh (s.a.v.): «Mendan madad so'ralmaydi, madad Allohdan so'raladi», dedilar. Agar Payg'ambardek zoti bobarakot shunday desalar, Bibi seshanbadan yordam kutish qandoq bo'libdi. Fatvolarda aytilishicha, «Kim Allohdan boshqalarga Allohga xos narsani joiz ko'rsa kofirdir». Abu Yazid Bastomiy esa, «Maxluqning maxluqdan panoh so'rashi go'yo g'arq bo'layotgan odamning ikkinchi g'arq bo'layotgan odamdan madad so'rashiga o'xshaydi», deganlar.

Har kuni besh vaqt namozimizda Alloh taologa «Sengagina ibodat qilib, Sendangina madad so'raymiz» deb yoborsagu yana ana shunday bid'at marosimlarni o'tkazib yursak, bu – aqidamiz to'g'ri emasligini ko'rsatadi.

Savol: Xalq orasida har xil irim-sirimlar yuradi. Shariatimizning ularga munosaati qanday?

Javob: Xalq orasida qadimdan kelayotgan yoki boshqa xalqlardan o'tib qolgan turli irim-sirimlarning borligi to'g'ri. Masalan, qorong'ida yoki juma kuni tirnoq olib bo'lmaydi, yo'lingdan mushuk kesib o'tsa orqaga qaytish kerak, supurgini tiklab bo'lmaydi, 13 raqami – baxtsiz, ostonaga hatlab so'rashib bo'lmaydi, falon kunda falon ishni qilib bo'lmaydi va hokazo. Bu irimlarda mutlaqo asos yo'q.

Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qilingan hadislarida «folchilik, irim-sirimlar butparastlik bilan barobardir», «Irim qiluvchi yoki irim qildiruvchi bizlardan emas», deyilgan.

Tirnoq olish. Avvalo shuni alohida ta'kidlash joizki, shariatda tirnoq olish uchun maxsus belgilab qo'yilgan kun va vaqt yo'q. Garchi shu mavzuga doir ko'pgina hadislar mavjud bo'lsa-da, ular tadqiqot asnosida mavzu' hadislar ekanligi aniqlangan. Tirnoq o'sgan ekan, qaysi kun va qaysi vaqtdan qat'iy nazar olinaveradi.

Xalifa Xorun ar-Rashid imom Abu Yusufdan «Kechasi tirnoq olsa bo'ladimi?» deb so'raganlarida «Bo'ladi», deya javob berganlar. Xalifa dalil so'raganida, Abu Yusuf «Xayrli ishlar kechiktirilmaydi», degan asosli javobni berganlar. Qaysi kuni tirnoq olishga ham yuqoridagi dalillar kifoya.

Mushuk kesib o'tishi. Bizningcha, qadimda xalqimiz orasida bunday irim bo'lmagan. Ruslar orqali kirib kelgan, shekilli. Qarg'ani qag'illashini eshitib yo'lidan qaytgan kimsa, tovushqon (quyon) yo'lidan kesib o'tganda yo'lidan qolgan kishi ham kufrga ketgan, deb hisoblanadi. Aslida musulmon kishi har bir ish Alloh taolo irodasi bilan bo'lishiga imon keltiradi. Shu sababli yuqoridagi kabi holatlarni baxtsizlikdan ogohlantirish tarzida qabul etish mutlaqo mumkin emas. Bu islomiy e'tiqodga aslo to'g'ri kelmaydi. Rasululloh (s.a.v.): «Kasallik yuqmaydi (hech qaysi kasallik Allohning irodasisiz o'zicha yuqmaydi), irim-sirim bema'nilik, boyqush baxtsizlik keltirmaydi va safar oyi bexosiyat emas», deganlar».

Xuddi shuningdek, sana va kunlarning ham baxtsiz yoki baxtlisi bo'lmaydi. Allohning barcha kunlari bir xil. Uning irodasi va hukmisiz hech narsa sodir bo'lmaydi, biror maxluq taqdiri ilohiydan qochib qutula olmaydi.

Savol: G'usl ni lozim qiladigan holatlarni bilaman, ammo g'usl hisobga o'tishi uchun qaysi tartibda olinishini yaxshi bilmayman. Shu haqda ma'lumot berolmaysizlarmi?

Javob: Islom tom ma'noda poklik dinidir. U insonning botini va zohirining pokligiga birday e'tibor beradi. Poklikni imonning teng yarmi deb qayd etib, iflosliklardan tozalanishni barcha mo'minlarga farz qilgan. Ig'vo, hasad, tuhmat, yolg'onchilik, fitna, g'iybat kabi ichki (botiniy) iflosliklardan poklanishning sharti tavbai nasux (gunohga aslo qaytmaslikka jazm) bo'lsa, tashqi (zohiriy) iflosliklardan poklanish g'usl (cho'milish) bilan bo'ladi. Uzrli hollarda tayammum ham g'usl o'rniga o'tadi.

Besh holdan so'ng:

1) jinsiy aloqa; 2) shahvat bilan maniy (urug') chiqishi; 3) ehtilom (uyquda bulg'anish); 4) hayz va 5) nifosdan so'ng g'usl qilish farzdir.

Juma, arafa hamda ikki hayit uchun, shuningdek, haj yo umraga ehrom bog'lash oldidan g'usl qilish sunnatdir («Majmaul fatovo»).

G'usl komil bo'lishi uchun uning farz va sunnatlarini bilish muhimdir. G'uslning uch farzi bor: 1) og'izni g'arg'ara qilib yuvish; 2) burunni dimoqqacha (dimog achishgulik darajada) chayish va 3) butun badanni qoldirmay yuvish. Ayollarning sochi o'rilgan bo'lsa, uni to'la yuvishga hojat yo'q, soch taglari ho'llansa kifoya qiladi. Soch o'rimlarini ho'llash ham lozim emas («Hidoya»).

Savol: Ko'pchilik namozxonlar tahorat oldidan tayyorgarlik ko'rishmaydi. Masalan, oyoqlarni yuvish navbati kelgandagina paypoqlarini yechishadi. Bir oyoqdagi paypoq yechilib, oyoq yuvilgach, yana paypoqni kiyib, so'ngra ikkinchi oyoqning paypog'i yechiladi va yuviladi. Ba'zilar o'rtada bir artinib olib, so'ngra oyoqni yuvishga kirishadilar.

Javob: Bunday qilish makruh. Tahoratga tegishli amallar orasiga boshqa amallarni qo'shish sunnatga xilofdir. Sunnatga ko'ra tahorat amallari orasiga begona amal kirmasligi kerak. («Hazonatul-fiqh»).

Savol: Kishiga qachon g'usl qilish vojib bo'ladi?

Javob: Islom dini musulmon erkak va ayollarga jimo'dan so'ng, ehtilom bo'lish (bulg'anib qolish)dan so'ng, ayollarga esa hayz va nifos (chilla)dan so'ng g'usl (gavda tahorati)ni vojib qilgan. G'usl qilmaguncha inson junublikdan chiqmaydi. Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: «Allohning har bir mo'mindagi haqqi yetti kunda bir marta butun a'zosini yuvib, g'usl qilishligidir». Payg'ambar alayhissalom mo'minlarga juma kuni g'usl qilishni buyurganlar. Amaliy va tibbiy tajribalardan ma'lumki, g'usl kishilarni turli nopokliklardan tozalabgina qolmay, jimo' tufayli yo'qotilgan kuch-quvvatni tiklash va tanani tetiklashtirish uchun ham xizmat qiladi.

Savol: G'usl qilmay turib so'zlashsa yoki ovqatlansa bo'ladimi?

Javob: Rasulullohning zavjalari Oisha onamiz rivoyat qiladilarki, Rasululloh ramazon kunlarida saharlikda vaqt ziq bo'lib qolsa, yuz-qo'llarini yuvib, og'izlarini chayib ovqatlanaverardilar. Saharlik taomini tugatib bo'lganlaridan so'ng subhdan keyin ustlaridan suv quyib olardilar. Demak bundan xulosa chiqadiki, g'usldan oldin so'zlashsa yoki ovqat yesa, zarari yo'q ekan.

Savol: Mahsi kiyish va mash tortish odoblari qanday?

Javob: Mahsi kiyish va mash tortishning uchta sharti bor:

a) Tahoratli oyoqqa mahsi kiysa, unga mash tortish joiz. Payg'ambarimiz alayhissalom Mug'iyra ibn Sho'baga, (r.a.), u Nabiyning (s.a.v.) mahsilarini yechmoqchi bo'lganida: «Ularni qo'y, men ularni tahoratli oyoqqa kiyganman», deb aytganlar.

b) Faqat tahorat olishda mash joiz. Junub kishi mash tortishi mumkin emas.

v) Mash muddatiga rioya qilish. Muqim uchun bir kecha- kunduz. Musofir uchun uch kecha-kunduz. Savfon ibn Assal (r.a.) shunday deganlar: «Rasululloh (s.a.v.), safarda bo'lsak, bizlarga mahsilarimizni uch kecha-kunduz yechmaslikni buyurar edilar». Ali ibn Abu Tolibdan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Nabiy (s.a.v.), mash muddatini musofir uchun uch kecha-kunduz va muqim uchun bir kecha-kunduz qilib belgilaganlar. Ba'zi insonlar bu muddatni besh vaqt namoz uchun deb xato o'ylashadi. Balki bu yigirma to'rt soat muqim uchun, yetmish ikki soat musofir uchun. Bu muddat tahoratni sindirganidan so'ng birinchi tortilgan mashdan boshlanadi va inson bu muddatda besh vaqtdan ko'p namoz o'qishi mumkin.

Savol: Kishi tayammum qilib, mahsi kiydi. U agar suv topsa, mahsisiga mash tortishi joizmi?

Javob: Unga mash tortmaydi. Rasulullohning, (s.a.v.), «...men ularni tahoratli oyoqqa kiyganman», degan so'zlariga binoan, u tayammum emas, tahorat olgan bo'lishi kerak. Agar tayammum qilgan bo'lsa, so'ngra suv topsa, mash tortmaydi.

Savol: Tahoratda yuviladigan a'zolarida yara yoki kasallik bo'lganida qanday tahorat olinadi?

Javob: Tahoratda yuviladigan a'zolarining birida yara yoki kasallik bo'lganida issiq suv bilan yuvish ham kishining sog'ligiga zararli bo'lsa, yuvilmaydi, balki ho'l qo'l bilan ustiga mash tortiladi. Agar mash tortish ham zarar yetkazadigan bo'lsa, bu amal ham tark etiladi. Agar bunday kasallik tahoratda (g'uslda) yuviladigan a'zolarining ko'p qismini qamrab olgan bo'lsa, tahorat yoki g'usl o'rniga tayammum qilinadi.

Savol: «G'assol murdani yuvgandan so'ng o'zi ham yuvinib olmasa, janoza namozini o'qishi mumkin emas» degan tushuncha asoslimi yo xatomi?

Javob: «G'assol murdani yuvgach, o'zi ham yuvinishi vojib», deyilgan hukm fiqhiy kitoblarimizda yo'q. Ammo yuvinishi mustahab, deyilgan. Demak, g'assol janoza namozidan oldin imkonini topsa, g'usl qilib olishi maqbul ishlardan, lekin shart emas, ya'ni, imkoni bo'lmasa, yuvinmasdan janoza namoziga qo'shilishi mumkin. Zero, janoza namozida hozir bo'lish uning zimmasidagi va marhum birodari oldidagi burchidir. Demak, siz yo'llagan savoldagi tushuncha xato.

Savol: Ayollardan doimiy kelib turadigan sarg'imtil sizinti tahoratni sindiradimi-yo'qmi?

Javob: Rasuli Akramdan (s.a.v.): «Tahoratni nima buzadi?» deb so'raganlarida Nabi alayhissalom: «Ikki yo'ldan chiquvchi narsa», deb bayon qildilar. Binobirin, ikki yo'ldan chiquvchi har qanday narsa tahoratni sindiradi. Ammo fuqaholar erkak va ayolning oldi a'zolaridan chiquvchi hidsiz yelni bundan istisno etib, «tahoratni sindirmaydi», deyishgan (Muhiyt).

Savol: Hayz kunlari faqat toq – uch, besh, yetti, to'qqiz kun bo'ladimi, hech juft bo'lmaydimi?

Javob: Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadisi muboraklarida shunday deydilar: «Bokira va beva ayol hayzining eng oz muddati uch kecha-kunduz bo'lib, ko'pining muddati o'n kecha-kunduzdir» («Hidoya»). Binobarin, hayz kunlari toq yoki juft bo'lishi mumkin. Bu har bir ayolning o'z odatiga qarab kechadigan jarayondir.

Savol: Hayzli ayolga nimalar harom?

Javob: Hayz va nifosli ayolga quyidagi ishlar harom:

1. Namoz o'qish.
2. Ro'za tutish.
3. Qur'oni karim o'qish.
4. Eri bilan jinsiy aloqa.
5. Masjidga kirish.
6. Qur'oni karimni ushlash.
7. Ka'bani tavof qilish.

Savol: Najasli kiyimni kiygan kishi terlasa, badani najas bo'ladimi?

Javob: Ha, kiyimi najas bo'lgan kishi terlasa, uning ho'l badaniga najas kiyimning tegishi sababli badani najas bo'ladi. Shuning uchun badanini yuvishi yo cho'milishi kerak.

Savol: Ba'zi hollarda badan qashilganida bo'rtmachalardan qon chiqib ketadi, yuvish noqulay bo'lgan joylarda ana shunday o'rinlar qanday poklanadi?

Javob: Badanning yuvish noqulay bo'lgan o'rinlari najas bo'lganida alohida uchta namlangan latta bilan yoki bitta lattaning uch joyi bilan va yo paxta bilan uch bor artilsa, toza bo'ladi.

Savol: Namoz o'qiyotgan kishining tahorati sinsa, o'zini qanday tutadi?

Javob: Namoz o'qiyotgan kishining tahorati sinsa, qayta boshdan o'qish fazilatlidir. Shunday bo'lsa-da, quyidagi shartlar topilganida yangidan tahorat olib, namozini davom ettirish mumkin: birinchidan, tahoratning sinishida va sababida uning (bandaning) ixtiyori bo'lmasin; ikkinchidan, tahoratni sindirgan narsa g'uslni vojib etuvchi bo'lmasin; uchinchidan, kam uchraydigan (masalan, hushdan ketish kabi) holat bo'lmasin; to'rtinchidan, tahorati singan holda namoz ruknlaridan birini ado etmasin; beshinchidan, tahorat qilishga ketayotgan holda ham namozning biror ruknini bajarmasin; oltinchidan, mazkur holda tahorati singandan so'ng yana o'z ixtiyori bilan tahorat sindirmasin; yettinchidan, zarurati bo'lmagan ishga qo'l urmasin; sakkizinchidan, tahorati singach, zudlik bilan tahorat qilishga ketsin, uzrsiz turib qolmasin; to'qqizinchidan, tahorat qilguncha mashining muddati o'tib qolmasin yo tayammum bilan o'qiyotgan bo'lsa, suv topilib qolmasin; o'ninchidan, unutib o'qimagan namozi yodiga tushib qolmasin; o'n birinchidan, jamoat bilan o'qiyotgan bo'lsa, jamoat namozni tugatmagan bo'lsa, jamoatdan qolmasin.

Bu shartlar topilmaganida namoz o'qiyotgan kishining tahorati sinsa, tahorat qilib, namozni qayta boshdan o'qishi kerak bo'ladi. Jamoat namozida tahorati singan kishi burnini ushlagan holda namozdan chiqishi mustahab bo'ladi.

Savol: Namoz o'qiyotgan kishining oldidan kesib o'tish mumkinmi?

Javob: Kichik masjidida namoz o'qiyotgan kishining oldidan kesib o'tish gunohdir. Imom Buxoriy «Sahih»larida Payg'ambarimizdan (s.a.v.) shunday rivoyat qiladilar: «Namoz o'qiyotgan kishining oldidan kesib o'tuvchi qancha gunohkor bo'lishini bilganida edi, uning oldidan kesib o'tmay, qirq yil kutib turardi va bu yaxshi bo'lardi». Katta masjidida yo ochiq joyda sutra qo'ymay namoz o'qiyotgan kishining oldidan sajda o'rniga qarab turganida nigohi tushadigan joydan kesib o'tish gunoh bo'ladi.

Savol: Yakka holda namoz o'qilganida jahriy namozlar qanday ado etiladi?

Javob: Yakka odam jahriy namozlarni o'z vaqtida ado etsa, ovoz chiqarib yo chiqarmay o'qishi ixtiyoriy. Ammo vaqtdan o'tkazib (qazo qilib) ado etayotgan bo'lsa, faqat ichida o'qiydi.

Savol: Namozning farzlari sanalganida farz namozining istalgan ikki rakatida qiroat qilish farz, deyilgan. Vojiblari sanalganida «uch va to'rt rakatli farz namozlarining oldingi ikki rakatida qiroat qilish vojib», deyilgan. Masalan, farz hukmiga rioya etgan holda istalgan ikki rakatda (deylik, birinchi va uchinchi yoki yana boshqacha) qiroat qilinsayu boshqalarida qiroat qilinmasa, tarki vojib hisoblanadimi? Bunday namozning hukmi nima bo'ladi?

Javob: Ha, tarki vojib bo'ladi. Agar adashib shunday o'qilsa, sajdai sahv bilan o'nglanadi, ammo ataylab tark qilsa, namozi haromlik bilan ado etilgan bo'ladi. Zero, har qanday vojibni ataylab tark qilish haromdir.

Savol: Namozda Fotiha surasidan so'ng o'qiladigan suralar belgilanganmi?

Javob: Namozda Fotiha surasidan so'ng muayyan surani muayyan namozda o'qish belgilab qo'yilmagan. Ammo namozlarda Fotiha surasidan so'ng sunnatga muvofiq o'qiladigan suralarning kalta-uzunligi ko'rsatilgan. Binobarin, fursat keng bo'lganida, bomdod va peshin namozlarida Buruj surasidan oldingi suralarni, asr va xufton namozlarida Bayyina surasidan oldingi suralarni o'qish sunnatdir. Fursat oz bo'lsa, shundan kelib chiqib o'qiladi («Sharhi viqoya»).

Savol: Sajdada burun yerga tegmasa, sajda joiz bo'ladimi? Peshonada jarohat bo'lsa va uni yerga tekkizish mumkin bo'lmasa, nima qilinadi?

Javob: Sajdada burunni yerga uzrsiz tekkizmaslik makruh bo'ladi. Peshonada jarohat bo'lib, uni yerga tekkizish mumkin bo'lmaganida, burunni yerga tekkizib sajda qilinadi. Bu ham mumkin bo'lmasa, namoz o'tirib o'qiladi va ruku, sujudga imo qilinadi («Halabi Kabir»).

Savol: Namozimizni komil qilish uchun uni buzuvchi narsalarni ham bilishimiz kerak. Ular qaysilar?

Javob: Quyidagilar namozni buzuvchi narsalardir:

Namozga niyat qilib, takbiri tahrima aytib, namozga kirgach, namoz amallaridan boshqa amallarni qilish mumkin bo'lmaydi. Namozga kirgach, quyidagilarni qilish namozni buzadi:

1. Gapirish (qasddan yo adashib bo'lsa-da).
2. Kishiga salom berish.
3. Salomga alik olish.
4. Uzrsiz tomoqni qirish.
5. Ah, oh, uf deb ovoz chiqarish.
6. Og'riq yoki musibatga ovoz chiqarib yig'lash.
7. O'zi eshitadigan darajada kulish.
8. Aksa urganda javob berish («Yarhamukalloh» deyish).
9. Savolga va xabarga oyatlar bilan bo'lsa-da, javob berish.
10. Biror narsani yeb-ichish.
11. Namozni jamoat bilan o'qiganida yoniga turgan odamga joy berish uchun surilish.
12. Qiroatni Qur'oni karimga qarab qilish.
13. Amali kasir (ko'rgan odam «namoz o'qimayapti» degan o'yga boradigan darajadagi biror ishni) qilish.
14. Najas ustiga sajda qilish.
15. Ko'krakni qibladan burish.
16. To'xtamay bir saf miqdoridan ko'p yurish.
17. Sajda hoida oyoq panjalarini yerdan ko'tarish.
18. Qiroatni ma'no o'zgaradigan darajada buzish.
19. Namoz farzlaridan birortasini uzrsiz qoldirish.
20. Namozning to'la bir ruknida avratning ochiq bo'lishi.
21. Tahoratning ketishi.

Savol: Bomdod namozini kamdan-kam holda o'z vaqtida o'qiyman. Goho quyosh chiqib bo'lganidan keyin yo uni jamoat o'qib bo'lgach, uyg'onaman. Qanday qilsam, bomdod namozini vaqtida va jamoat bilan o'qiyman? Maslahat bering.

Javob: Avvalo, bomdod namozi fazilatini bilib, unga erishishni maqsad qilish kerak.

Imom Muslim va Termiziy Rasulullohdan (s.a.v.) shunday rivoyat qiladilar: «Kim bomdod namozini jamoat bilan o'qisa, butun kecha namoz o'qiganlik savobiga erishadi».

Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Bomdod namozini o'qigan mo'min Allohning hifzu himoyasida bo'ladi» (Imom Buxoriy va Tabaroniy rivoyatlari).

Imom Buxoriy rivoyat qilgan sahih hadisda: «Kim ikki bardni o'qisa, jannatga kiradi», deyilgan. Ikki bard – bomdod va asr namozlaridir.

Ikkinchidan, musulmon odam bomdod namozini qoldirish qanchalar og'ir ekanini bilmog'i lozim. Rasululloh (s.a.v.): «Munofiqalar uchun eng og'ir namoz – xufton va bomdod namozidir», deganlar.

Bu aytilganlarga qanoat qilgan mo'min bomdod namozini vaqtida o'qish uchun yana: erta yotishi; bomdod namoziga turmoq uchun niyat va qaror qilishi; uxlashdan oldin tahorat olishi va Allohni yodlab uyquga ketishi; uyqudan uyg'ongan zahotiyuq Alloh taoloni zikr etishi; namozga turmoq uchun ahli oilasidan va solih kishilardan yordam so'rashi; Parvardigorga iltijo qilib, bomdod namozini jamoat bilan ado etishga muvaffaq qilishini so'rashi; qo'ng'iroqli soatdan foydalanishi kerak.

Savol: Imom juma mav'izasini qilib turgan paytda nafl namoz o'qisa bo'ladimi? Umuman, masjidga kirganda o'qiladigan nafl namoz haqida ma'lumot bersangiz.

Javob: Masjidga kirganda o'qiladigan nafl namozni Tahiyatul masjid («tahiyyat» salomlashish, so'rashish ma'nosidadir) namozi, deyiladi. Ushbu ikki rakatli namozni ado etish sunnat. Chunki Payg'ambarimiz alayhissalom: «Qaysi biringiz masjidga kirsa, ikki rakat nafl namoz o'qimay o'tirmasin», deganlar.

Hanafiy mazhabi bo'yicha, mazkur namoz farz namoz o'qilmayotgan va namoz o'qish makruh bo'lmagan vaqtlarda ado etiladi.

«Tahiyyat» o'qishga tahoratsizlik yoki boshqa narsa sababidan imkoniyat bo'lmasa, «Subhanalloh, alhamdulillah, va lailaha illallohu vallohu akbar» deyilishi sunnatdir.

Savol: Peshin vaqtida azon aytilmagan bo'lsa-da, peshin namozining to'rt rakat sunnatini o'qisa bo'ladimi?

Javob: Ha, azon sunnat namoz uchun emas, farz namoz uchun aytiladi. («Hidoya»)

Savol: O'tirib namoz o'qiganda ruku holati qanday bo'ladi?

Javob: Gavdani sal bukish bilan ruku ado etiladi.

Savol: Rasululloh (s.a.v.) erkaklarni ma'qus (ya'ni, sochni tepaga yiqqan) holda namoz o'qishdan qaytarganlar. Bu qaytariq ayollarga ham tegishlimi? Ya'ni, ayollar namozda va namozdan tashqarida sochini turmaklab yurishlari mumkinmi?

Javob: Janobi Rasulullohdan (s.a.v.) bir hadis borki, unda er kishi 'aqsdan – sochini tepaga yig'ishtirib namoz o'qishdan qaytarilgandir.

«Al-'aqs» deb, lug'atda sochni muloyim qilib, atrofini boshning tepasiga yig'ishtirib-to'plashga aytiladi.

Birinchidan, mazkur hadis erkaklarni namozda sochlarini to'plab o'qishdan qaytargan. Demak, xotinlar bundan mustasnodirlar.

Ikkinchidan, bu nahiy namoz o'quvchi er kishiga nisbatan aytiladi. Demak, namozdan tashqarida yig'ishtirib yurishi mumkin. Uchinchidan, fuqaholar bu nahiyni makruhi tanzih, ya'ni, mubohga yaqinroq nahiy deyishgan. («Maslakul muttaqiyn», «Tashilu zaruriy», «Majmuatul fatovo» kitoblari asosida tayyorlandi).

Savol: Ba'zi namozxonlar sajdaga borishda yerga avval qo'llarini, so'ng tizzalarini qo'yadilar. Sajdadan qiyomga turishda esa, aksincha, oldin tizzalarini ko'tarib, so'ng qo'llarini ko'taradilar.

Javob: Bunday holda sajdaga borish va sajdadan qaytish makruh hisoblanadi. Sajdaga borishda tizzalar yerga tekkuncha tik tushiladi, so'ng engashilib qo'llar yerga qo'yiladi. Sajdadan qaytishda esa avval bosh va qo'llar ko'tarilib, so'ng tizzaga tayangan holda turiladi.

Savol: Ba'zilar namoz o'qiyotganda og'irliklarini bir oyog'idan ikkinchisiga solib, chayqalib turganini ko'ramiz.

Javob: Bunday qilish sunnatga xilofdir. Namoz o'qishda og'irlikni ikki oyoqqa birday solib, chayqalmasdan tik turiladi.

Savol: Sajda qilayotganda oyoqlarning panjalarini yerdan ko'tarsa, namozga xalal yetadimi?

Javob: Sajda holida ikkala oyoqlarining ham panjalarini yerdan ko'targan kishining namozi buziladi («Hidoya»).

Savol: Ayollarning qadami (oyoq tagi) avratmi? Ular namozni paypoq kiyib o'qishlari kerakmi?

Javob: Ayollarning qadami namozda yopish lozim bo'lgan avrat emas. Shuning uchun paypoq kiymay namoz o'qishlari joiz. Unga nomahram erkaklarning qarashi haromdir («Sirojiya»).

Savol: Ba'zilar sajdaga borishdan oldin shimining poychalarini bir ko'tarib olishadi. Yoki sajdadan tik bo'lishda chopon yo yaktagining etaklarini to'g'rilab, keyin qo'llarini bog'laydi.

Javob: Bunday qilish makruhdir. Agar bunday ish bir ruknda uch bora takror qilinsa, namoz buziladi («Radd ul-muxtor»).

Savol: Qiyomdan sajdaga borishda ko'plar rukuga o'xshatib, oldinga egilib so'ng sajdaga qilishadi.

Javob: Bu hol xatodir. Bir rakatda ikki bor ruku qilish bo'lib, sajdai sahvni lozim qiladi. Aslida tizzalar yerga tekkuncha tik tushib, so'ng sajdaga borish kerak («Radd ul-muxtor»).

Savol: Suv ham, tayammum uchun pok narsa ham topolmagan kishi namozini qanday ado etadi?

Javob: Namoz payti kirganida joynamoz ustida huddi namozga o'tirgandek o'tiradi. So'ng suv yoki tayammum uchun pok narsa topilsa, qazo niyati bilan namozini o'qiydi. («Radd ul-muxtor»)

Savol: Namozda farzi xilofiya ham bor, deb eshitdim. Farzi xilofiya nima va u nechta?

Javob: Farzligi masalasida mazhabimiz muftahidlari yakdil bo'lmagan amal farzi xilofiya, deyiladi. Namozda ikkita farzi xilofiya bor. Ular namozdan ixtiyor bilan chiqish va ta'dili arkondir.

Namozning barcha arkonlarini ado etgan kishi undan o'z ixtiyori bilan salom berib chiqishi kerak. Shunga asosan, namozning barcha arkonlarini ado etib bo'lgach, salom bermasdan oldin o'ziga bog'liq bo'lmagan holda tahorati sinib qolsa, namozi buzilgan bo'ladi.

Ta'dili arkon deyilganda ruku, sujud, qiyom va jalsalarni maromida ado etish tushuniladi. Mazkur ijtihodga muvofiq, ta'dili arkon etmagan kishining namozi ham nomaqbuldir.

Savol: Fiqh kitoblarida namozdagi vojiblardan biri tumoniya, deb yozilganini o'qidim. «Tumoniya» nima ekanini tushuntirib bersangiz.

Javob: Namozning ruku va sajda holatlarida tana a'zolarining to'la qarorlanishi «tumoniya» deyiladi. Tumoniya vojibdir. Payg'ambarimizning (s.a.v.) namozni shoshib o'qigan a'robiyga: «Namozingni qayta o'qi. Eng o'g'ri odam namozning ruku va sujudini shoshib, chala ado qilgan kishidir», ma'nosida tanbeh berganlari vorid bo'lgan («Hadiyyatus-su'luk»).

Savol: Masjidga har kuni boramiz, ammo uning odoblarini bilmaymiz. Bu haqda qanday ko'rsatmalar bor?

Javob: Masjid musulmonlar e'tiqodining ko'zgusidir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday deydilar: «Masjidga (ko'ngli) bog'langan kishini ko'rsangiz, uning imoniga guvohlik bering».

Parvardigori Olam Kalomi majidida marhamat qiladi: «Allohning masjidlarini Allohga va oxirat kuniga imon keltirganlarga obod etadi».

Mufasssirlar masjidni obod etishni uning nuragan joylarini tuzatish, supurib-sidirish, pok tutish, yoritish, ibodatlarni unda ado etish va uni noloyiq narsalardan asrash, deb tushuntiradilar.

Masjidlar pok va muborak makondir. Binobarin, uning qadrini pasaytiruvchi va pokligiga putur yetkazuvchi har qanday ish va harakat makruhdir. Masjidga yoqimsiz hidli narsalarni iste'mol qilib kirish, ichkarida dunyoviy so'zlarni so'zlash, ovoz ko'tarish, savdo-sotiq qilish, yo'qolgan narsalarni surishtirib jar solish, zaruratsiz masjid hovlisidan o'tish kabi hatti-harakatlardan saqlanish lozim.

Masjid ichida faqat unga taalluqli narsalarga saqlanishi mumkin («Halabi Kabir»).

Masjid fanosi (masjidga tutash, yo'l bilan undan ajralmagan hovli) masjid hukmidadir («Radd ul-muxtor»).

Masjid uchun berilgan yer xolis Alloh mulkiga aylanadi. Banda o'z yerini masjid uchun ajratgach, yer o'zining haqiqiy egasiga qaytadi. Barcha narsaning haqiqiy moliki Alloh taolodir («Hidoya»).

Masjid yeriga ekilgan daraxt masjid haqqidir («Hulosatul fatovo»). Yer daromadidan, avvalo, masjid imorati ta'miriga sarflanadi. Ortgan mablag' uning ma'naviy imorati – imom va boshqa xodimlarga belgilangan miqdorda taqsimlanadi («Radd ul-muxtor»).

Savol: Azon aytilganidan so'ng namoz o'qimay masjiddan chiqib ketish mumkinmi?

Javob: Azon aytilgan masjiddan shu vaqt namozini o'qimagan kishining chiqib ketishi makruhdur. Ammo boshqa masjid jamoat namozi sizga bog'liq bo'lsa yo azon aytilgan vaqt namozini o'qib olgan bo'lsangiz, chiqib ketishingiz makruh bo'lmaydi. Peshin va xufton namozlarini o'zingiz o'qib masjidga borgan bo'lsangiz, ularga iqomat aytilganida masjiddan chiqishingiz makruhdur. Bomdod, asr va shom namozlarini o'zingiz o'qib masjidga borganingizda ularga iqomat aytilganida masjiddan chiqib ketishingiz makruh bo'lmaydi.

Savol: Masjid hovlisida janoza o'qiyotganimda bir gal yonimdagi kishi tuflisini yechib, ustiga turib o'qidi. Sababini so'ray olmadim. Odatda ko'pchilik oyoq kiyimida o'qiyveradi-ku? Bunda jiddiy farq bormi?

Javob: Janoza namozini ham boshqa namozlar kabi pok joyda ado etish shartdir. Najas ustida turib o'qilgan namoz durust bo'lmaydi. Odatda oyoq kiyimlar bilan har xil joyda yurilganidan ularning najasdan xoli bo'lishi ehtimoldan yiroq. Shuning uchun janoza namozida imomdan boshqa odamlar joynamozda turmaganliklari uchun oyoq kiyimlarini yechib, uning ustiga oyoqlarini bosib turishlari kerak. Bunda oyoq kiyimi ikki qavat kiyim hukmiga o'tadi. Qavilmagan ikki qavat kiyimning bir qavati nopok bo'lsa, ikkinchi pok qavatida namoz o'qish joizdir («Muxtasar ul-viqoya» va «Hadiyyatus su'luk» kitoblari asosida tayyorlandi).

Savol: Kunlar isib qoldi. Ko'chada yurib yo ishlab badan terlaydi, hidlanadi. Shu holda, umuman, yomon hid bilan masjidga kirish mumkinmi?

Javob: Islom tom ma'noda poklik dinidir. Shuning uchun ham tahorat va g'usl farz qilingan. Maqsad: musulmon kishidan hech kim ozorlanmasin. Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday ta'lim berganlar: «Kim sarimsoq, piyoz va ko'k piyoz yegan bo'lsa, masjidimizga yaqinlashmasin, chunki farishtalar odam bolasi ozorlanadigan narsadan ozorlanadi» (Imom Muslim rivoyatlari). Bu gap terlab, badanlari yoki kiyimlarida badbo'y hid bilan masjidga kiruvchilarga ham tegishlidir. Ammo tamaki va nosvoyga kelsak, ularni chekish haromdir. Tamaki va nosvoyning hidi esa yuqorida aytilganlardan ham jirkanchdir. Uning badbo'y hididan insonlar va farishtalar ozorlanadi. Shuning uchun chekadigan va nos otadigan kishi bu illatlardan tezda qutilishi zarur.

Savol: Ba'zi hollarda masjid gilamlarini qaytarib, tagiga tupugini tashlaganlarni ko'rib qolamiz.

Javob: Bunday qilish mumkin emas. Bu ishlari masjidni tahqirlashdir. Tupukni tashlamaslikning iloji bo'lmasa, uni dastro'molga yoki kiyimning etagiga artib olish kerak.

Savol: Havo issiq kunlari juma namoziga kelganlar qaerda bir soya joy ko'rishsa, darhol joynamoz tashlab, namozga saf tortib olaverishadi. Natijada bir masjid hovlisida odamlar bir necha guruhlariga bo'linib juma namozini o'qiydilar.

Javob: Bu hol makruhdur. Masjidga soyalanish uchun emas, Allohga qullik qilish uchun keladilar. Shunday ekan, Alloh rozi bo'lgan tartibda namozni ado etish zarur. Saflarning to'g'ri holatda bir-biriga ulashuvi esa, Alloh rozi bo'ladigan amallardan hisoblanadi.

Savol: Masjidlarimizda namozni o'qib, duo qilib bo'lingan zahoti bimalol hol-ahvol so'rashishlar va boshqa mavzularda gaplashishlar odat tusiga kirib qoldi...

Javob: Bu ish noto'g'ri. Shar'an makruhdir. Zero , masjid xonaqohi Allohni ulug'lash uchun bunyod qilinadi. Shuning uchun namozxonlar xonaqoh ichida emas, tashqarisida salomlashishlari va dunyoviy masalalarini hal etishlari kerak. («Halabi Kabir»)

Savol: Ayollar masjidga borsa bo'ladimi?

Javob: Xotin-qizlarning masjidga borishlari umuman man etilmaydi. Ammo Hanafiya mazhabimiz ko'rsatmalariga binoan ayollarning masjidga borishlari rag'batlantirilmaydi. Bu haqda Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan shunday hadisi sharif bor: «Ayol kishining yolg'iz o'qigan namozining savobi masjidda o'qigan namozning savobidan yigirma besh marta ko'pdir» (Muslim va Abu Dovud rivoyati).

Rasululloh (s.a.v.) davrlarida ayollarning masjidga borishlariga ruxsat berilgan edi. Lekin turli fitna-fasodlar ko'payib ketgach, bu cheklab qo'yildi. Oisha onamiz: «Agar Rasululloh (s.a.v.) hayot bo'lib ayollarda paydo bo'lgan ushbu zebu-ziynatlarni ko'rganlarida edi, Bani Isroil kabi ularning masjidlarga bormoqliklarini albatta man qilgan bo'lur edilar» deganlar. (Imom Buxoriy rivoyati).

Savol: E'tikof qanday amal va qay tartibda bajariladi?

Javob: E'tikof Qur'oni karim va sunnati nabaviya bilan sobit bo'lgan shar'iy amaldir. Rasululloh (s.a.v.) e'tikofni vafot qilgunlaricha aslo tark etmaganlar.

Ulamolarimiz bu amalga shunday o'xshatish qiladilar: e'tikofdagi kishi ulug' martabali kishiga hojati tushib «ishimni bitirib bermaguningizcha eshigingizdan jilmayman» deb turib olgan hojatmand kishiga o'xshaydi. Mo'takif (e'tikof o'tiruvchi) ham masjidda o'tirib «gunohimni kechmaguningcha jilmayman» deb Allohga iltijo qiluvchi kishidir.

Imom Abu Hanifa (r.a.) e'tikofning eng oz miqdori bir kun desalar, imom Abu Yusuf (r.a.) bir soat o'tirilsa ham e'tikof hosil bo'ladi, deganlar.

Ayollar o'z uylarida namoz o'qish uchun ajratilgan joyda e'tikof o'tiradilar.

Mo'takif masjiddan faqat tabiiy hojatlarini ushatish, tahorat, g'usl va juma namoziga (bevosita uning vaqtida yo unga ulgura oladigan vaqtda) borish uchun chiqadi. Hojatini ushatgach, bir soat masjidga kirmay ushlanib qolsa, e'tikofi buziladi. Mo'takif masjidda uxlaydi, ovqatlanadi, faqat xayrli so'zlarni so'zlaydi. O'z hojatiga zarur narsalarni savdo qilishi mumkin.

Savol: Namozni masjidda jamoat bilan o'qish nima bilan sobit bo'lgan?

Javob: Sog'lom, balog'atga yetgan, aqlli erkaklarga besh vaqtdagi farz namozlarini jamoat bilan o'qish sunnat bilan sobit bo'lgan vojibdir. Munofiqlargina jamoatdan o'zini tortadi. Jamoatga bormay, namozni doimo tanho o'qiydigan kishining guvohligi shar'an qabul qilinmaydi.

Jamoat namozida farz namozi bir kishiga (imomga) ergashib o'qiladi. Imom oldinda, qolganlar uning ortida saf tortib o'qiydilar. Dinimizda barcha musulmonlarning ilmi, ma'rifatli bo'lishlari farz bo'lganidan, har bir musulmon imom bo'lishi mumkin.

Savol: Imom bo'lishga kim haqliroq?

Javob: Imom bo'lishga birinchi haqdor namoz masalalarini puxta bilgan kishidir. Bu darajaga yetganlar ko'pchilik bo'lsa, ulardan qiroat ilmiga mohirrog'i imomlikka o'tadi. Bu sohada ham teng bo'lishsa, yoshi ulug'i imom bo'ladi.

Imomlikka haqli odam turganida boshqaning imom bo'lishi makruhdur. Jamoat yoqtirmagan kishining imom bo'lishi ham makruh. Ammo jamoat orasida imomlikka undan boshqa haqdor bo'lmasa, makruh bo'lmaydi.

Tayammum qilish, mahsiga yo jarohatga mash tortish, shuningdek, o'tirib ruku' va sajda qilish darajasidagi zaiflik kishining imomlikka haqdorligini ketkazmaydi.

Nafl namozni farz namozni o'qiyotgan kishiga iqtido qilib o'qish mumkin. Yosh bola hech bir namozda balog'atga yetganlarga imom bo'lishi mumkin emas. Uzrli kishi ham uzri yo'q odamlarga imom bo'laolmaydi.

Savol: Imom qanday niyat qiladi?

Javob: Tanho namoz o'quvchi qanday niyat qilsa, imom ham shunday niyat qiladi. Qavmlar esa, jamoat namozida imomga ergashayotganini ham ko'ngildan o'tkazishlari kerak.

Savol: Imom qanday qiroat qiladi?

Javob: Imom bomdodning farz namozida, shom va xuftonda farz namozlarining oldingi ikki rakatida ovoz chiqarib qiroat qiladi. Peshin va asr namozida ichida qiroat qiladi. Imom barcha namozda birinchi rakatda ikkinchi rakatga ko'ra uzunroq qiroat qiladi. Imomga iqtido qilgan kishi qiroat qilmaydi.

Savol: Kitoblarda «masbuq», «lohiq» va «mudrik» kabi so'zlarga duch keldim. Ularning ma'nosini tushuntirib berolmaysizmi?

Javob: Jamoat farz namozini o'qiyotganda bir va undan ortiq rakatga kechikib qo'shilgan kishi masbuq deyiladi.

Namozga birinchi rakatdan qo'shilib, tahorati singani yo uxlab qolgani sababidan namozni jamoat bilan tugatolmagan kishi lohiqdur.

Jamoat namozini boshdan oxirigacha imom bilan o'qigan shaxs mudrik hisoblanadi. Masbuq qoldirgan rakatlarida qiroat qilib namozini tugat qiladi. Lohiq qoldirgan rakatlarida qiroat qilmaydi.

Savol: Jamoat namozi boshlanganida, o'qib turgan namozini oxiriga yetkazmay jamoatga qo'shilish kerak, deb eshitdim. Shu to'g'rimi?

Javob: Bu masala siz qanday namozni o'qiyotganingizga va nechanchi rakatda ekaningizga qarab hal etiladi. Avvalo, bu o'rinda jamoat namozining boshlanishi, deyilganida muazzinning iqomatini emas, balki imomning takbiri tahrima aytishini tushunmoq kerak. Agar siz nafl namoz, yo peshin va jumaning to'rt rakat sunnat namozlarini o'qiyotganingizda imom farz namozini boshlab, takbiri tahrima aytsa ham, o'qiyotgan namozlaringizni oxirigacha o'qib tamom qilasiz. («Muhiti Saraxsiy»). So'ng imomga iqtido qilasiz. Agar bomdod yo shomning farz namozlarini boshlaganingizda yo bir rakat o'qib, ikkinchi rakatga turganingizda, jamoat hozir bo'lib, imom takbiri tahrima aytsa, turgan holingizda salom berib, o'qiyotgan namozingizni to'xtatasizda, jamoatga qo'shilasiz. Peshin, asr va xuftonning farz namozlarida, mazkur holatda, ikki rakatni to'la o'qib, salom berasiz. So'ng imomga ergashasiz. Bu uch vaqt farzining uch rakatini o'qigan bo'lsangiz, ularni oxirigacha o'qiysiz, ya'ni, to'rt rakatni to'la ado etasiz. Keyin peshin va xuftonda nafl namoziga niyat qilib, imomga ergashasiz. Asr farzidan so'ng nafl namoz o'qish makruhligidan bu paytda imomga iqtido qilmaysiz.

Savol: Ba'zan masjidlarda jamoat namozi tugaganidan so'ng, garchi kechikib kelganlar hali namoz o'qiyotgan bo'lsalar-da, ularga yuzlangan holda duo qilinadi.

Javob: Bu hol makruhdur. Namoz o'qiyotgan kishiga, u qaysi safda bo'lsa-da, yuzlanib o'tirish makruh bo'ladi. («Radd ul-muxtor»).

Savol: Bomdod namozining farziga iqomat aytilgandan so'ng imomlikka mustahiq odam kelib qolsa, jamoat uni sunnat namozi o'qigunicha kutishi kerakmi? Agar kutsa, iqomat qayta aytiladimi?

Javob: Ha, jamoat imomlikka mustahiq odamni kutib turishi kerak. Ammo iqomat qayta aytilmaydi. («Radd ul-muxtor»).

Savol: Ko'pincha jamoat namozi o'qilayotganida oldingi safda bo'sh joy bo'lsa-da, uni to'ldirmay, orqa safda turib namoz o'qiyotganlarni ko'ramiz.

Javob: Bu holat jamoat namozi sunnatiga xilof. Oldingi safda bo'sh joy bo'lgan holda orqa safda turib namoz o'qish makruh bo'ladi. Shu boisdan oldingi safdagi bo'sh joylarni darhol to'ldirib olish kerak.

Savol: Jamoat namozida qa'dada tashahhud o'qimay uxlab qolgan kishi imom bilan qo'shilib salom beradimi?

Javob: Yo'q. U uyg'ongach, tashahhud o'qishi va so'ng salom berishi zarur. Agar mazkur holda imom bilan qo'shilib salom bersa, namozi buziladi. («Halabi kabir»).

Savol: Muazzin azon jumlarining tartibida yanglishib, keyingi jumlani oldin aytib qo'ysa, nima bo'ladi?

Javob: Muazzin azon jumlarining tartibida yanglishib, keyingi jumlani oldin aytib qo'ysa, qoldirgan jumlani aytgach, oldin aytgan jumlani o'z o'rnida yana qayta aytadi. Ammo azon boshdan qayta aytilmaydi («Halabi Kabir»).

Savol: Muazzindan boshqa kishi iqomat aytsa bo'ladimi?

Javob: Muazzin hozir bo'lganda, uning ruxsatisiz o'zganing iqomat aytishi makruhdur. Ammo muazzinning o'zi ruxsat etsa, karohatsiz joiz bo'ladi («Majmuatul-fatovo»).

Savol: Hayz va nifosdagi ayol hamda junub kishi azonga javob qaytarishlari lozimmi?

Javob: Hayz va nifosdagi ayol azonga javob qaytarmaydi. Ammo junub kishi azonga javob qaytarishi lozim («Radd ul-muxtor»).

Savol: Iqomatdan oldin «Qomat» deyishning shar'iy asosi bormi? Balog'atga yetmaganing azon aytishi durustmi?

Javob: Iqomatdan oldin «qomat» deyishning shar'iy asosi yo'q. Binobarin, «qomat» deyish nojoizdir («Nihoya»). Balog'atga yetmagan aqlli o'spirinning azon aytishi joiz. Ammo aqlsiz bola chaqirgan azon qayta aytilishi kerak («Radd ul-muxtor»).

Savol: Qo'qonda bir qori akamizdan: «Yolg'iz namoz o'qiganda ham azon va takbir aytib namoz o'qing. Shunday qilsangiz behisob farishtalarga imom bo'lasiz», deb eshitgan edim. Shu asoslimi?

Javob: Ha, Saraxsiyning «Mabsut» kitobida bu haqda hadis keltirilgan. Uning mazmuni shunday: «Kim ochiq yerda azon va iqomat aytib namoz o'qisa, mag'rib va mashriq orasidagi farishtalar u bilan qo'shilib namoz o'qiydilar. Azon va iqomat aytmay namoz o'qigan kishi bilan esa, faqat ikki farishta birga namoz o'qiydi»,

Savol: Ba'zi muazzinlar iqomatni yurib turib aytishadi, namozxonlar ham iqomat aytila boshlangandayoq turib ketishadi...

Javob: Bu hol sunnatga xilofdir. Iqomat azon kabi bir joyda turib aytiladi. Namozni kutayotgan jamoat esa, iqomatning «Hayya 'alassolah!» lafzlari aytilgandagina turishlari kerak. («Hidoya»).

Savol: Begona joyda qiblaning qaysi tomondaligini topolmagan kishi nima qiladi?

Javob: Bizning diyorumizda qibla (Ka'ba) quyosh botar tarafdadir. Aniqrog'i, quyosh yozda qish faslidagidan ko'ra o'ngroq tomonda botishidan, quyosh botish chizig'i uchga taqsim qilinadi va ikki hissasi o'ngda qoldiriladi, chapda qolgan bir hissa Ka'ba tomoni, deb qabul qilingan.

Kimki dushmandan, yirtqich hayvondan yoki o'g'ridan xavf qilgani uchun qiblaga qarab o'qishdan qo'rqsa, qodir bo'lgan tarafiga qarab namoz o'qishi joiz.

Kemada (poezd)da farz yoki nafl namozni o'qimoqchi bo'lgan odamga yuzini qiblaga qilish vojib bo'ladi.

Hatto namoz boshlangandan keyin kema boshqa tomonga qarab burilsa, namoz o'quvchi ham namoz o'qigan holda yuzini qiblaga to'g'rilashi kerak.

Qiblaning qayoqdaligini bilmagan kishi, oldida so'raydigan odam bo'lmasa, o'zi qasd qilib bir tomonga qarab o'qiydi. Agar namoz o'qib bo'lganidan keyin qibladan boshqa tarafga qarab o'qiganini bilib qolsa, namozni qayta o'qimaydi. Bordiyu namozning ichida qiblani aniq bilib qolsa, namozda turgan holda qiblaga qarab buriladi.

Qiblani qalban qasd qilmay namoz o'qilsa, qiblaga qaragan bo'lsa ham, namoz durust bo'lmaydi. Zero qibla noaniq va so'raydigan kimsa bo'lmagan holda qalban bir tarafni qiblaning tarafi deb qasd etish farz bo'ladi.

Savol: Qiblaga oyoq uzatib yotsam, kattalar tanbeh berishdi. Nima, bu mumkin emasmi?

Javob: Qibla dunyodaga barcha musulmonlar namoz va boshqa ibodatlarda yuzlanib turadigan taraf, Saudiya Arabistonining Makka shahridagi Masjidul Haramda joylashgan – Ka'ba (Baytulloh)dir. Hijratning ikkinchi yilida Alloh musulmonlarga o'sha tomonga yuzlanib namoz o'qishni buyurgan. Bungacha ular Quddusdagi Aqso masjidiga qarab ibodat qilishardi. Haj va Umra qiluvchilar Ka'bani yetti marta aylanib, tavof (ziyosat) etishadi.

Shuning uchun qibla tarafga oyoq uzatib yotish, o'tirish, u tomonga qarab yoki orqa qilib yozilishlik, yosh bolalarni u tarafga qaratib to'sish makruh hisoblanadi, mumkin emas. Bu bilan qiblaga nisbatan tarki hurmat qilingan bo'ladi.

Marhumlarga janoza o'qilayotganda va qabrga qo'yilganda o'ng tomoni qiblaga qaratib qo'yiladi.

Savol: Alloh qodir qildi, bu yil zakot bermoqchiman. Buning shar'iy talablari qanday?

Javob: «Zakot» so'zi lug'atda poklanish, orttirish, rivojlanish ma'nolarini ifodalaydi. Istilohda esa, belgilangan miqdordagi molning ma'lum qismini, shartlarga binoan, uni olishga haqdor bo'lgan kishiga berishdir.

Zakot dinimizning besh asosiy ruknidan biridir. Zakot hijratning ikkinchi yili farz qilindi. Uning yuksak va beqiyos hikmatlaridan asosiylari quyidagilardir:

1. Boylarning oxirat azobidan najot topishlari, baxillik kasalidan poklanishlariga sabab bo'ladi.

2. Faqir va ojiz kishilarga yordam berish, muhtoj kishilarning dardlariga darmon bo'lish, ularning g'am va qayg'ularini yengillatish hissini tarbiyalaydi.

3. Tilanchilar, ishsizlar sonini kamaytiradi, u tufayli jamiyatdagi jinoyatlar, qabihliklar va tartibsizliklar yo'qoladi.

4. Zakot boylarning juda katta mablag'lar yig'ib, kambag'allarning iqtisodiy mahrum bo'lishlari natijasida yuzaga keladigan to'ntarish kabi tartibsizliklardan jamiyatni himoya qiladi.

5. Zakot ne'matning shukronasidir. Chunki Alloh taolo bandalariga badaniy, moliyaviy ne'matlar bergan. Shunday ekan, boy-badavlat kishi kambag'alligi va daromadi ozligi tufayli boshqalarga muhtoj odamlarga qarab, o'zini tilanchilikdan, boshqalarga muhtoj bo'lishdan qutqargan Alloh taolaga shukr etmasa, mulkidan juda ham oz qismini faqirlarga bermasa, u naqadar xasisdir.

Zakotning rukni unga haqdorni zakot moliga ega qilishdir. Zakot beruvchi kishi zakot niyatida bir faqir yoki yetimning qornini to'ydirsa, bu xarajati zakot o'rniga o'tmaydi.

Zakot balog'atga yetgan, aqlli, ehtiyoj va qarzlardan tashqari bir qamariy yil to'lgan nisob miqdoridagi, hukman bo'lsa ham, ko'payuvchi mulkka ega musulmonga farzdir.

Zakotni ado etish farz bo'lishi uchun nisobning yil boshida va oxirida mavjud bo'lishi kifoyadir. Yil o'rtasida nisob miqdori kamaysa ham, zakot beriladi.

Zakotni berayotganida yoki mulkidan ajratayotganida uning zakot ekanini niyat qilish lozim. Faqir olayotgan moli zakot ekanini bilishi shart emas.

Molidan zakotini ajratmasdan zakot beruvchi kishi vaqti-vaqti bilan kambag'allarga mulkidan ehsonlar ulashib tursa, har safar berayotganida zakot, deb niyat qilmasa, bular zakot o'rniga o'tmaydi. Keyinchilik: «Mana shu muddat ichida bergan sadaqalarim zakot o'rniga o'tsin», deb niyat qilsa ham, zakot o'rniga o'tmaydi.

Savol: Chorva hayvonlaridan ham zakot beriladi, deb eshitdim. Shu gapda jon bormi?

Javob: Yilning aksariyat qismini dalalarda o'tlab o'tkazadigan qo'y, sigir va tuyaga o'xshash to'rt oyoqli hayvolardan zakot berish farzdir.

Tijorat maqsadidagi otlardan ham zakot beriladi. Yuk tashish va minish maqsadida qo'llanilgan otlardan, yem berib boqiladigan otlardan zakot berilmaydi. O'tlaydigan otlar suti uchun yoki ko'paytirish uchun boqilayotgan bo'lsa, agar ular sof arab otlaridan bo'lsa, egasi hohlasa, ot boshiga bir dinor, hohlasa, otlarning jami qiymatini hisoblab, ikki yuz dirhami uchun besh dirham (2,5 foiz miqdorida) zakot beriladi.

Agarda suti uchun yoki ko'paytirish maqsadida boqilayotgan otlar arab otlaridan bo'lmasa, faqatgina qiymati hisoblanib, har ikki yuz dirhamidan besh dirham zakot beriladi.

O'ttiz boshdan kam bo'lgan sigirlardan zakot berilmaydi. Sigirlar soni o'ttiztaga yetgach, ulardan ikki yoshga o'tgan bir dona urg'ochi yo erkak buzoq zakotga beriladi. Sigirlar soni qirqtaga yetgach, ulardan uch yoshga o'tgan bitta urg'ochi yoki erkak buzoq zakot beriladi. Oltmishta sigir uchun ikki yoshga o'tgan ikkita erkak yoki urg'ochi buzoq

zakotga beriladi. Yetmishta sigir uchun ikki yoshga o'tgan erkak buzoq bilan uch yoshga o'tgan urg'ochi buzoq zakotga beriladi.

Bundan oshgan har o'n besh sigir uchun umumiy sonlariga ko'ra, bitta ikki yoshga o'tgan erkak buzoq yo uch yoshga o'tgan urg'ochi buzoq qo'shib zakot beriladi. Qo'toslardan zakot berish sigirlardan zakot berish kabidir.

Qirqtadan oz bo'lgan qo'ylardan zakot berilmaydi. Qirqtadan bir yuz yigirmatagacha bo'lgan qo'ylardan bitta qo'y zakot beriladi. Bir yuz yigirma bittadan ikki yuztagacha qo'ylardan ikkita qo'y zakotga beriladi. 201 tadan 400 tagacha qo'ylardan uchta qo'y zakotga beriladi.

Savol: Dehqonchilik mahsulotlari va mevalardan ham zakot beriladimi?

Javob: Yerlar ikkiga ajratiladi:

1. Ushr berilishi lozim bo'lgan yerlar. Xalqi o'z xohishi bilan musulmon bo'lgan yoki davlat rahbari tomonidan yerni fath qilgan askarlarga bo'lib berilgan yoki ushr berishi hadis bilan (Hijoz kabi) va sahobalarning ijmosi bilan (Basra kabi) sobit bo'lgan joylar.

2. Xiroj berishi lozim bo'lgan joylar. Musulmonlar tomonidan fath qilingan yoki sulh bilan qo'lga kiritilgan va mahaliy xalqning ixtiyorida qoldirilgan yerlar.

Yilning aksar qismida yomg'ir va shunga o'xshash suvlar bilan sug'orilgan yerlar mahsulotidan ushr beriladi. Paqir va shunga o'xshash narsalar vositasida sug'orilgan yerlar hosilidan yigirmadan biri zakot qilib beriladi.

Ushr berishda yerning xarajatlari chiqarib tashlanmaydi. Shuningdek, mahsulotlar olinganidan so'ng bir yil o'tishi, nisob miqdori shart emas. Yerdan olingan hosil qancha bo'lishidan qat'i nazar, undan ushr beriladi.

Savol: Dehqonchilik qilaman, ammo ushr berilishi haqida hozirgacha bilmagan ekanman. Ushrni qancha va kimga berishim kerak?

Javob: «Ushr» molning, hosilning o'ndan bir bo'lagi, demakdir. Islom shariatiga ko'ra yomg'ir suvi va jilg'a, soy suvi bilan o'sgan g'alla, beda, mevalarning hamda ana shunday yerlardan yig'ib olingan asalning o'ndan bir qismini, ya'ni ushrini berish farz (majburiy) hisoblanadi. Hosil olgan odam xoh boy yoki kambag'al, xoh balog'atga yetgan yoki yosh bola bo'lsin, baribir ushr beraveradi. Ushr ham zakot oluvchilar, ya'ni faqir kishilarga beriladi.

Bordiyu yomg'ir yog'maydigan yerlarga charxpalak yoki nasos kabi asboblardan suv chiqarib ekilgan bo'lsa, bunda ushr to'liq berilmaydi, balki yigirmadan bir qismi beriladi. Ijaraga olingan yerga ekilgan ekindan ushrni o'sha ijaraga olib ekan kishi beradi, ammo ba'zi ulamolar yer egasi beradi, deyishadi.

Savol: Qo'ldagi oltin va kumushdan ham zakot beriladimi?

Javob: Nisob miqdoriga yetganidan so'ng oradan bir qamariy yil o'tgach, tanga holiga keltirilmagan bo'lsa ham, oltin va kumush uchun zakot berish farzdir.

Kumushning nisobi 200 dirhamdir.

Bu 140 misqol og'irlikdagi kumushdir. 1 misqol 4 gr.ga teng.

140 m. 4 = 560 gr. bo'ladi.

Har 10 dirham 7 misqolga, 1 dirham 2,8 gr.ga tengdir.

Oltinning nisobi 20 misqoldir.

Nisob miqdoriga yetgan kumush, oltin qiymatiga teng pulga ega bo'lgan kishi bu pulning qirqdan birini zakot qilib berishi lozim.

Savol: Bir birodarim mendan kattagina miqdorda qarz olgan. Shunga ham zakot to'laymanmi?

Javob: Qarzlarning uch turlidir: 1. Kuchli qarz. 2. O'rtacha qarz. 3. Zaif qarz.

Qarzdorligini yo molni olib, pulni to'lamagani haqidagi hujjatni inkor etmagan kishilardagi qarz kuchli qarzdorlikdir. Bularning miqdori nisobga yetgan bo'lsa, bir yil o'tgach, zakoti beriladi. Agar nisob miqdorida bo'lmasa, qo'lidagi mablag'ga qo'shiladi, jami nisob miqdoriga yetsa, zakoti chiqariladi.

Tijorat maqsadida bo'lmagan mollar ehtiyoj uchun sotilganida olinishi lozim bo'lgan, ammo hali olinmagan mablag' o'rtacha qarz hisoblanadi. Bu tur qarzdorlikdan u olinmaguncha zakot berilmaydi. Ammo olingach, miqdori nisobga yetsa, sotilgan kundan e'tiboran hisoblanib zakoti beriladi. Nisob miqdorida bo'lmasa, qo'lidagi mablag'ga qo'shib hisoblanadi.

Mahr, vasiyat qilingan pul va olinmagan tovon pullari zaif qarz bo'ladi. Bunday pullar nisob miqdorida bo'lsa, olinganidan e'tiboran bir yil o'tgach, zakoti chiqariladi. Agar nisob miqdorida bo'lmasa, qo'lidagi mablag'ga qo'shib hisob qilinadi.

Savol: Zakotni duch kelgan kishiga berib bo'lmaydi, deb eshitdim. Buning shartlari qanday bo'ladi?

Javob: Zakot quyidagilarga beriladi: «Albatta, sadaqalar (ya'ni, zakotlar) Alloh tomonidan farz bo'lgan holda faqat faqirlarga, miskinlarga, sadaqa yig'uvchilarga, ko'ngillari (Islomga) oshno qilinuvchi kishilarga, bo'yinlarni (qullarni) ozod qilishga, qarzdor kishilarga va Alloh yo'lida (ya'ni, jihad yoki hajga ketayotganlarga) hamda yo'lovchi musofirlarga berilur. Alloh bilim va hikmat sohibidir» (Tavba surasi, 60-oyat).

1. Faqirlar. Nisob miqdoridan kam mablag'i bor yo nisob miqdoricha mablag'i zaruriy ehtiyojlariga sarflangan kishilar.

2. Kambag'allar. Hech narsasi yo'q, faqirdan ham muhtoj kishilar.

3. Sadaqa to'plovchi kishilar. Ular davlat rahbari tomonidan zakot va sadaqalarni (xalqdan) yig'ish topshirig'i berilgan kishilardir. Badavlat bo'lsalar ham, vazifalari sababli ularga zakot mollaridan bir miqdor beriladi.

4. Qalblari (Islomga) og'dirilishi zarur bo'lganlar. Bular Payg'ambarimizning (s.a.v.):

a) musulmonlikni tanlab, Allohga imon keltirishlarini;

b) dinga zarar berishlarining oldini olishni;

v) imonlarini kuchaytirib, haqiqiy musulmon bo'lishlarini xohlagan kishilardir.

5. Mukotablar, ya'ni ma'lum miqdorda mol evaziga ozod bo'lishlari xususida xo'jayinlari bilan shartnoma tuzgan qullar.

6. Qarzdorlar, ya'ni qarzini to'lashdan o'z bo'lgan kishilar.

7. Alloh yo'lidagilar. Bular hayotlarini Alloh yo'lida kurashga bag'ishlab, Islom dini shuhrati yuksalishi uchun xizmat qilgan faqir askarlar.

8. O'z diyoridan (va u yerdagi mulkidan) uzoqqa ketgan (ularni keltirishdan o'z bo'lgan) musofirlar.

Badavlat kishining faqir katta o'g'liga, badavlat kishining faqir xotiniga, farzandi boy bo'lsa-da, uning faqir otasiga zakot berishi joiz.

O'z qishlog'i va shahrida faqir kishilar bo'laturib, zakotni boshqa qishloq-shahardagi muhtoj kishilarga yuborish makruhdur.

Savol: Alloh qodir qilib, qurbonlik amalini bajarish nasib etdi. Ammo uning shartlarini bilmayman. Qurbonlikning qanday shar'iy talablari bor?

Javob: Qurbonlik qilish zakot, sadaqai fitr kabi moliyaviy ibodatdir.

Zulhijja oyining o'ninchi kuni hayit namozi o'qilganidan boshlab, to o'n ikkinchi kunining shomigacha qurbonlik so'yish vaqtidir.

Kumush zakotining nisobidagi mablag'ga yo zaruriy ehtiyojidan ortiqcha, qiymati kumush nisobi miqdoriga yetadigan mulkka ega bo'lgan muqim musulmonga qurbonlik qilish vojib bo'ladi.

Yashayotgan turar joyi, kerakli (uy ichida, ishda va hayitda kiyish uchun) kiyimlari, uy anjomlari, mehnat qurollari zaruriy ehtiyojga kiradi.

Musofirga qurbonlik so'yish vojib emas.

Qurbonlik so'yish vaqtining oxiridagi boylik holati qurbonlikning vojib bo'lishi uchun hisobga olinadi. Ya'ni, kambag'al kishi qurbonlik so'yish vaqtining oxiriga kelib kumush nisobi miqdoricha boylikka ega bo'lsa, unga qurbonlik qilish vojib bo'ladi, agar boy kishi shu vaqtda kambag'al bo'lib qolsa, unga qurbonlik so'yish vojib bo'lmaydi.

Qiymati kumush zakoti nisobiga yetadigan yeri bo'lgan, ammo o'zi ijarada yashayotgan musulmonga qurbonlik so'yish vojibdir («Muxtasar-ul viqoya»).

Savol: Mening xususiy uyim yo'q, ijarada o'tiraman. Ammo nisob miqdoridagi pulim bor. Menga qurbonlik vojib bo'ladimi?

Javob: Ha, vojib bo'ladi. Zero, qurbonlik qilish kunlari nisob miqdoridagi pulga yo qiymati shunga yetadigan hojatidan oshiqcha molga ega har bir ozod, muqim musulmonga qurbonlik qilish vojib bo'ladi («Radd-ul muxtor»).

Savol: Qurbonlik so'yishi vojib bo'lmagan kishi qurbonlik qilsa bo'ladimi? Agar mumkin bo'lsa, qanday niyatda qurbonlik qilishi kerak?

Javob: Ha, qurbonlik so'yishi vojib bo'lmagan kishi qurbonlik qilishi mumkin. Ammo qurbonlikka so'yiladigan hayvonni vojib qurbonlik niyatida emas, sunnat qurbonlik niyatida sotib olishi kerak bo'ladi. Agar uni vojib qurbonlik niyatida sotib olsa, nazr qilingan mol kabi go'shtidan o'zi va boylar yeyishi mumkin emas. Uni kambag'allarga sadaqa qilishi lozim («Radd-ul muxtor»).

Savol: Qurbonlikka qanday hayvonlar yaraydi-yu, qandaylari nojoiz?

Javob: Qurbonlik uchun besh yoshga to'lgan tuya, ikki yoshga to'lgan qoramol, olti oyga to'lgan qo'y, bir yoshli echki yaraydi.

Qurbonlik niyatida tovuq, kurka kabilarni so'yish makruhdir.

Tuya va qoramollarni yetti kishi yo bundan kam kishi birlashib qurbonlikka so'yishlari joiz. Ammo ulardan birining niyati go'sht olish bo'lsa, barchalarining qurbonligi bekor bo'ladi. Zero, qurbonlikning rukni go'sht olish emas, mol so'yishdir. Yetti kishi bir bo'lib so'ygan qurbonlik go'shtini kilolab tortib, teng taqsimlab olishlari lozim bo'ladi.

Ko'zi ko'r, qulog'i, shoxi, dumining uchdan bir qismidan ko'pi kesib tashlangan hayvonlar qurbonlikka yaramaydi. Qurbonlikka so'yilgan hayvonning terisini qassobga xizmat haqi sifatida berish mumkin emas.

Qurbonlik so'yishi vojib bo'lgan kishi qurbonlikni vaqtida so'ymasa, keyin uning qiymatini sadaqa qilishi vojibdir.

So'yilgan qurbonlikning uchdan birini sadaqa qilish, uchdan birini yedirish, uchdan birini keyin yeyishga olib qo'yish mustahab.

Serfarzand bo'lsa, hammasini o'z farzandlari uchun qoldirishi mustahabdir.

Qurbonlik qiluvchi so'yishni bilsa, o'zi so'yadi, bilmasa, birovga buyurib, o'zi uning oldida turadi.

Qurbonlik terisi nimaga ishlatiladi?

Qurbonlik molining terisi sadaqa qilinadi yo ro'zg'orda ishlatiladigan kigiz, palos kabi narsalarga almashtiriladi. Agar sotib yuborilsa, puli sadaqa qilinadi («Muxtasar-ul viqoya»).

Savol: Umra va haj uchun ehromga kirish tartibi qanday? Qachondan ehromga kirilgan hisoblanadi? Ehromga kirgan insonga nimalar taqiqlanadi?

Javob: Umra yo haj ehromsiz ado qilinmaydi. Ehromning umra va haj amallaridagi o'rni takbiri tahrimaning namozdagi o'rniga teng.

Ehromga kirmoqchi bo'lgan kishi tahorat yo g'usl qiladi. G'usl qilish yaxshiroqdir. Tirnoq va mo'ylablarini qisqartiradi. Badanni olinishi lozim bo'lgan tuklardan tozalaydi.

Erkaklar tikilgan kiyimlarini yechib, beldan pastini tizza bilan qo'shib toza oq choyshab bilan o'raydi. Ikki rakat namozdan so'ng «Ilohim, men hajni (umrani) qasd qildim, uni menga oson et va qabul ayla», deb niyat qilgan holda talbiya («Labbaykallohumma labbayk...»ni) aytish bilan ehromga kirgan hisoblanadi. Talbiya aytmasa, ehromga kirgan bo'lmaydi.

Ehromga kirgan inson jufti bilan jinsiy yaqinlikdan, gunohlarning barcha turidan, yo'ldoshlari bilan tortishuvdan saqlanishi lozim. Shuningdek, jonivorlarni o'ldirmaydi, tikilgan kiyimni mutlaq kiymaydi, badanini yog'lamaydi yo xushbo'y narsa surtmaydi, soch, mo'ylab va tirnoqlarini olmaydi. Imkoni boricha talbiyani ko'p aytadi («Hidoya»).

Ehromdagi inson haj yo umrani ado etayotib, bu qaytarilgan ishlarga qo'l ursa, tegishli jonliq so'yib yo sadaqa berish bilan jinoyatining kafforatini o'tashi kerak.

Savol: «Hajji mabrur» birikmasidagi «mabrur» so'zini qanday tushunmoq kerak? Hajji mabrur qanday haj?

Javob: «Mabrur» so'zi «yaxshi», «rioya etilgan» ma'nolarini bildiradi. Hajning talablariga to'la-to'kis rioya etgan hamda ado etish davomida gunoh qilmagan kishining haji «hajji mabrur», deyiladi. Hadisi sharifda shunday kelgan: «Hajji mabrurning mukofoti jannatdir» («Minhojus-solihin»).

Savol: Baytullohni tavof qilishda ayollar uchun qaysi afzal: toshni o'pishmi yoki odamlar tiqilinch joydan uzoq bo'lishmi?

Javob: Ba'zi kishilarning farz namozida salom berishdan oldin shoshilib toshni o'pish uchun shiddat bilan yugurishganini ko'ramiz. Bunday holda sunnat bir amalni bajaraman, deb Islom ruknlaridan bo'lgan farz namozini buzadi.

Agar toshni o'pish tavof bilan tenglashtirilsa, bilimsizlik alomatidir. Aslida, toshni o'pish yo toshga ishora qilish faqat tavofning ichidagina sunnatdir. Chunki tavofdan boshqa paytda toshga ishora qilish sunnat emas. Bu tavof ham agar o'ziga yoki boshqaga ozor berish bilan bajarilsa, sunnat bo'lmaydi. Shunda biz Rasululloh (s.a.v.) ko'rsatgan ikkinchi usulga o'tamiz. Ya'ni, inson qo'lini o'pib, toshga ishora qiladi. Agar-da bu ham ozor yoki mashaqqatga sabab bo'lsa, u holda uchinchi yo'lni tutamiz. Bu yo'l toshga uzoqdan qo'lni o'pmay, o'ng qo'l bilan ishora qilishdir. Rasulullohning (s.a.v.) sunnatlari shunday edi. Shuning uchun ayollar bundan qaytariladi, chunki ayol homilador, qari yoki yosh qiz bo'lishi mumkin va bularning barchasi munkar ishlardir, chunki ayolga zarar yetishi mumkin. Ayolning erkaklardan iborat tiqilinch joyda qolishi harom va makruh ishlardandir.

Savol: Har yili minglab yurtdoshlarimiz haj qilishadi. Ana shu mashaqqatli ibodatning maqbul bo'lish shartlari qanday?

Javob: Haj ibodati davomida biror gunoh qilmagan, buzuq so'zlar aytmagan hoji onadan yangi tug'ilganidek gunohlaridan pok bo'ladi. Bu Rasuli akramning (s.a.v.) bashoratlari.

Buning uchun hoji:

- haj arkonlari va amallarini to'la bajarishi, eng avvalo, niyatni xolis qilishi kerak. Zero, amallar natijasi niyatga bog'liq. Har bir kishiga niyat qilgani bo'ladi;

- musulmon uchun eng muhim ishlardan yana biri topgan va to'plagan moli, mablag'ining halol, pok bo'lishidir. Bu uning barcha yaxshi amallari, jumladan, haj ibodatining ham maqbul bo'lish shartlaridandir. Alloh taolo pokdir. Faqat pok amalni qabul qiladi;

- agar zimmasida qarzi bo'lsa, ularni uzishi, olgan omonatini qaytarishi, undan ranjiganlarning ko'nglini olishi, qaytib kelgunicha qaramog'idagilarga yetadigan nafaqani hozirlashi kerak. Bandaning boshqa bir banda zimmasidagi haqqini o'sha odam kechmagunicha Alloh taolo kechmaydi;

- haj yo'liga tushgan mo'min o'tgan gunohlariga chin dildan tavba qilishi, o'zini go'yo dunyodan oxiratga o'tayotganday his etishi, solih amallar qilishga shoshilishi lozim. Alloh taoloning roziligidan boshqa o'y-xayollarni qalbidan chiqarishi kerak;

- muborak haj safarida hoji yo'ldoshlari bilan go'zal munosabatda bo'lish lozim. Ular bilan tortishmasligi, ularning e'tiroziga bois bo'luvchi ishlarni qilmasligi, ularga ozor yetkazmasligi, ozorlariga sabr qilishi kerak;

- safari davomida gunohdan, behuda ishlardan va buzuq so'zlardan yiroq bo'lishi va qolgan hayotida ham bunga doimo qat'iy amal qilishi lozim;

- ehromda bo'lganida birinchi Aqobada tosh otgunicha har namozidan so'ng tepalik joyga chiqqanida, pastlik yerga tushganida, hojilar guruhiga yo'liqqanida talbiya aytmog'i kerak;

- Haram hurmatini toptamasligi, undagi giyohlarni yulmasligi, daraxt shoxlarini sindirmasligi, hayvonlarni ovlamasligi, o'ldirmasligi kerak;

- Zam-zam suvidan to'yib-to'yib ichishi kerak. Boshi va tanasi ustidan uni quyishi zarur. Zam-zam suvidan to'yib ichish nifoqdan qutilishdir. Janobi Rasululloh (s.a.v.): «Zam-zam suvi va do'zax o'ti kishining ichida jam bo'lmaydi», deb marhamat qilganlar. Bu zam-zam suvi haqidagi bashoratlardandir;

- Madinai Munavvarani ham Makkai Mukarrama kabi e'zozlashi lozim;

- Rasulullohning (s.a.v.) qabrlarini ziyorat etishni g'animat bilishi zarur. Zero, bu ishi Rasulullohni tirik chog'larida ziyorat qilish kabidir. Rasulullohni ziyorat qilish u zotning shifoatlariga yetishuvga sabab bo'ladi.

Savol: Yurtchilik ekan, qishlog'imizda bir qariya vafot etdi. Farzandlar to odamlar to'plangunicha nima qilishni bilolmay, dovdirab qolishibdi. Shunday holatda nima qilish kerak?

Javob: Kishining o'limi yaqinlashgani sezilsa, yuzini qiblaga qaratib, o'ng yonboshi ila yotqizib qo'yish sunnatdir. Bizning o'lkalarda chalqancha yotqizib qo'yish ham ixtiyor qilingan. So'ngra xastaning oldida kalimai shahodat aytib turiladi. Xasta ham aytsa, boshqa takrorlanmaydi, aytmasa, aytishga majburlanmaydi. Joni chiqqach, iyagi bog'lanadi. Qo'llari yonga qilinib, oyoqlari juftlab qo'yiladi. Ko'zi yumiladi. Qorni shishib ketmasligi uchun oyna, pichoq yoki shunga o'xshash narsa bilan bostirib qo'yiladi. Kiyimlarini yechib, ustini yopib qo'yish mustahab. So'ng boshqalarga xabar qilinadi. Xush bo'y taratish uchun atrofida isiriq tutatiladi yoki rayhon qo'yiladi.

Mayitni avvalo g'assol qo'lqop kiyib istinjo qildiradi, keyin tahorat qildiradi: yuzi, so'ngra ikki qo'li tirsagi bilan qo'shib, yuviladi, so'ng boshi mash qilinadi, keyin ikki

oyog'i oshig'i bilan qo'shib yuviladi. Shundan so'ng, avvalo, o'ng tomoni, keyin chap tomoni, yuviladi. Norasida bola bo'lsa, g'usl qilish kifoyadir.

O'lik yuvilayotganda og'ziga, burniga suv yuborilmaydi, tirnog'i olinmaydi, sochlari taralmaydi.

Erkaklarning kafani uch qavat bo'ladi: 1) izor, ya'ni boshidan oyog'igacha; 2) qamiys – bo'ynidan oyog'igacha; 3) lifofa – yana boshidan oyog'igacha. Ayollarning kafani ham shu uchallasidan va yana himor (yuziga yopiladi) va xirqa – ko'krakdan tizzasigacha bo'lgan enli matodan iborat bo'ladi.

Shu tariqa kafanlashga mato yetmasa, erkaklarga izor va lifofa, ayollarga izor, lifofa va himor kifoyadir.

Kafan yechilib ketishi xavfi bo'lsa, bog'lab qo'yiladi, bog'ichlar mayyit lahadga qo'yilganda yechib yuboriladi.

Kafanlanib bo'lgach, janoza namozi o'qiladi.

Savol: Janoza namozini o'qishga kim haqli? Janoza namozining ba'zi takbiriga ulgurmagan kishi qanday qo'shiladi va o'qiydi?

Javob: Janoza namozini o'qishga eng birinchi sulton haqlidir. Sultondan so'ng uning noibi, qozi, jamoat imomi va mayyit asabalari (ota, o'g'il, nabira) keltirilgan tartibda haqdordirlar. Binobarin, agar marhum boshqa odamga vasiyat qilgan bo'lsa ham, inobatga olinmaydi. Shu jumladan, mayyit egalari ham bu tartibga daxl qila olmaydilar.

Janoza namozining ba'zi takbiridan kechikkan kishi hazrat Abu Yusuf (r.a.) qavllariga ko'ra, kelgan zahoti takbir aytib janoza namoziga qo'shiladi. Imom salom berganidan so'ng tobut yerdan ko'tarilguncha qoldirgan takbirlarini aytadi. Bunda hech narsa o'qimaydi («Hadiyyatus-su'luk»).

Savol: Janoza namozini o'qish tartiblari qanday?

Javob: Mayyit kafanlangach, unga janoza namozi o'qiladi. Janoza namozi farzi kifoya – ya'ni, biror musulmon o'qisa, barchadan soqit bo'ladi. Aks holda barcha gunohkor bo'ladi.

Janoza namozining takbiri to'rt takbir bo'lib, o'qilinadigan sano, durud va duolar sunnatdir. Demak, mazkurlarni bilmagan kishi ham komil tahorat qilib, mayyit ko'kragi to'g'risida turib niyat qilib, to'rt takbir («Allohu akbar») aytsa, janoza namozi joiz bo'ladi.

Janoza namozi uchun avval niyat qilib bo'lgach, qo'llarining bosh barmog'ini quloq yumshog'iga tekkizgan holda takbir aytadi. So'ng sano o'qib, yana takbir aytadi, ammo qo'llarini ko'tarmaydi. Uchinchi takbirdan oldin durud (salovot), to'rtinchi takbirdan oldin esa duo o'qiladi. Takbir aytilganda boshlar ko'tarilmaydi. Shuni unutmash kerakki, besh vaqt namozga nimalar shart qilingan bo'lsa, janoza namoziga ham shartdir. Mazkur shartlar ichida namozni pok joyda ado etish shartiga to'xtalsak. Oyoq kiyimi najasotdan xoli bo'lmasligi isbot talab qilinmaganligidan «Hadiyyatus-su'luk» kitobida zikr qilinganidek, janoza namozini ado etishda oyoqni oyoq kiyimidan chiqarib, uning ustiga, agar yer quruq bo'lsa, yerga qo'yib turishi zarurdir.

Tug'ilgandan so'ng ovoz chiqarib uzilgan go'dakka nom qo'yiladi, yuviladi va janoza o'qiladi. Agar o'lik tug'ilsa, nom qo'yilib, yuvilib, janozasiz dafn qilinadi. Tushik esa lattaga o'rab ko'miladi, xolos.

Savol: Marhumni dafn etishning ham qoidalari bormi?

Javob: Mayyitni qabrga qo'yayotgan kishi «Bismillahi va 'alo millati rasulillahi», deb aytishi kerak. Mayyit qabrga qo'yilgach, uning boshi qiblagamoyil qilib qo'yiladi.

Tobutni to'rt kishidan ziyod kishi ko'tarmasligi kerak. Qabristonda tobut yerga qo'yilmaguncha o'tirish makruh. Tobut qo'yilgach esa, ishga mashg'ul bo'lmagan barcha o'tirishi darkor.

Savol: Vafot etgan kishining janozasida imom-xatib vorislarning biridan «Shu kishining qarzini to'lashni bo'yningizga olasizmi?» deb so'raydi. Qariyb hamma (ba'zan jamoatdan uyalib bo'lsa kerak): «Ha, to'layman», deb javob beradi. Shunda va'da berib yuborgan odamning bo'yniga qarz qoladimi? O'ki qarzlarni olgan shaxs to'layolmay vafot etib qolsa, unda nima bo'ladi?

Javob: Ma'lumki, zimmadagi qarz uni ado etmaguncha yoki kechilmaguncha yo qarz sababi bekor qilinmaguncha soqit bo'lmaydi. Binobarin, qarzini uzmay vafot etgan qarzdor oxiratda javob beradi. Uni oxirat azoblaridan xalos qilish uchun yaqinlaridan biri marhumning qarzini ado etishni zimmasiga olar ekan, bu narsa kafilning o'z molidan marhum qarzini to'lashini anglatmaydi. Zero, kafillik haq talab qilinishida qarzdor bilan birga javobgar bo'lishdir («Muxtasar-ul viqoya»).

Marhum qoldirgan mol, avvalo, uni kafanlash va ko'mish ishlariga sarflangach, vorislar haqqini olishidan oldin qarzni ado etish muhim bo'lgani uchun uning qarzi uziladi. Aynan shu ishda kafil bosh bo'lishi lozim. Binobarin, kafil marhum qarzlarini u qoldirgan moldan uzishni zimmasiga olgan shaxsdir.

Savol: O'lgan erkakning xotinidan «Mahringizdan o'tdingizmi?» deb so'raladi. Xotin o'tdim, deydi. Shunda mahr eridan soqit bo'ladimi?

Javob: Mahr nikoh aqdi bilan ayol mustahiq bo'lgan mol bo'lib, naqd yo nasiya etib belgilanishi ma'lum. Mahr naqd ado etilganda o'lgan erining xotinidan mahridan kechishni so'rash o'rinsizdir. Ammo mahr nasiya bo'lsa, er vafot etsa, u er zimmasida qarz bo'lib qoladi. Bu holda xotin o'z mahridan kechsa, marhum eri qarzidan qutilishi muqarrar.

Savol: Bir o'rtog'im kesak yeyishini, shusiz yomon ahvolga tushib qolayotganini gapirdi, men uni bu ishdan qaytardim. «Inson tuproqdan yaralgan, shuning uchun Islomda kesak yeyish haromdir», dedim. Men to'g'ri qildimmi? Balki o'rtog'im tibbiy jihatdan bemorligi tufayli shunga ehtiyoj sezayotgandir?

Javob: Inson ozuqa yo davo sifatida iste'mol qiladigan barcha narsa uning ruhi va jismiga ta'sir etishi muqarrar. Shuning uchun ham Islom yeb-ichish masalasiga jiddiy e'tibor beradi. Islom xalqum pokligini, halol yeb, halol kasb etishni insonga eng ulug' farz etib, jism va ruhga zarar beruvchi barcha narsa iste'molini harom deb e'lon etgan. Toha surasining 81-oyatida shunday deyiladi: **«Sizlarni bahramand qilgan pok rizqlarimizdan yenglar va ularga (shukr qilmaslik bilan) haddan oshmanglarki, u holda ustringizga Mening g'azabim tushar. Mening g'azabim kimning ustiga tushar ekan, u muhaqqaq halok bo'lur».**

Mujtahid ulamolarimiz tuproq yeyishni man qilganlar.

«Jung» kitobida «Tutun (chekish) tuproq yeyish kabi harom», deyilsa, «Fatovoi Qozixon» asarida «Tuproq yeyish karihdir. Zero, uning iste'moli zararlidir. Zararli narsani iste'mol qiluvchi o'zining qotilidir», deyiladi. Shuningdek, «Majmu'-ul fatovo» va «Fatovoi Sirojiya»larda ham tuproq yeyish nojoizligi ta'kidlangan. Demak, tuproq yeyishning nojoizligi sababi uning inson jismiga zararidir.

Shar'an harom narsalar iste'molining, jumladan, tuproq yeyishning tibbiy zarurati bo'lsa, buni faqat xoziq tabiblar tavsiya qilganlarida va shunda ham uning evazi bo'lmasa, shar'an joiz, deyiladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Alloh taolo dardlaringiz shifosini sizlarga harom qilgan narsalarda qilmagan».

Siz o'rtog'ingizni tuproq yeyishdan qaytarish bilan dinimiz asoslaridan biriga – nahiy munkarga amal qilish darajasiga noil bo'lgansiz.

Savol: Ba'zan kasal qo'y va mollarni so'yishga to'g'ri keladi. Qo'y va mollar bo'g'ilib qolgani, kaltaklangani, tepalikdan yiqilgani yo mashina urib ketgani oqibatida oyoqqa turolmaydi va so'yiladi. Ularning go'shti halol bo'ladimi?

Javob: Kasal qo'y va molni bo'g'izlash paytida tirikligi ma'lum bo'lsa, bo'g'izlangach, go'shti halol bo'ladi. Ammo pichoq tortilayotgan paytda u tirik yo o'likligiga shubha uyg'onsa, qaraladi: so'yilganda tanasi qimirlasa, og'zini yo ko'zini yumsa, oyoqlarini yig'ib olsa yoki junlari tikkaysa, go'shti yeyiladi. Aksincha, so'yilganda og'zini yo ko'zini ochsa, oyoqlarini cho'zib yuborsa yoki junlari yotib qolsa, go'shti yeyilmaydi. Bo'g'ilib qolgan, kaltaklangan, tepalikdan yiqilgan yo mashina urib ketgan qo'y va mol hali o'lmagan bo'lsa, bo'g'izlangach, go'shti halol bo'ladi («Hadiyyatus-su'luk»).

Savol: Ma'lumki, dinimizda har bir muammoga javob bor. So'yilgan qo'y kallasining qay tarzda tozalanishi haqida shariatimiz nima degan?

Javob: «Fatavoi Astitoni»da sizni qiziqtirgan masala haqida shunday deyilgan: «Qo'y kallasini tozalashdan oldin uning jag'i ajratilib, tish oralari tozalanadi, so'ng issiq suv quyilib junlari yulinadi».

Bu masaladan ogoh birodarlarimiz kalla tishlari orasini tozalashdan ularni butunlay olib tashlash qulayligi uchun kallani issiq suvga solib ivitishdan oldin ularni butunlay sug'urib tashlaydilar. Bu albatta taom pokligi uchun muhimdir.

«Fatavoi Astitoni»da tovuq, g'oz kabi parrandalarning ham ichini yormay, qaynoq suvga solib, so'ng patlari yulinsa, ularning go'shti shar'iy nuqtai nazardan pok bo'lmasligi qayd etilgan.

Savol: Taom yeyishda ham farz bor, deb eshitdim. Shuni tushuntirib berolmaysizmi?

Javob: Darhaqiqat, taom yeyishda ham farz bor. Ularni bilish va amal qilish dunyo hamda din saodatining muhim omili hisoblanadi. «Farzi ayn» kitobida taom yeyishda to'rt farz borligi qayd qilingan. Ulardan birinchisi xalqum pokligidir. Ya'ni, tanovul qilinayotgan taom dinimiz nuqtai nazaridan halol bo'lishi va halol yo'llar bilan topilishi lozim. Xalqum pokligining bu ikki qanotini asrash imon taqozosidir.

Rizqning Alloh taolodan ekaniga iqror bo'lish taom yemoqning ikkinchi farzidir. Har bir mo'minning e'tiqodi shunday bo'lishi kerak. Zotan, Alloh taolodan o'zga rizq berguvchi yo'qdir.

Nasibaga rozi bo'lish taom yemoqning uchinchi farzidir. Rizqni Alloh taolo berar ekan, kimga qancha berishni ham O'zi biladi. Alloh taoloning berganiga rozi bo'lib, uni ziyoda etishni so'rash mo'minning xislatidir.

Taom yemoqning so'nggi farzi taom quvvatini gunohga sarflamaslikdir. Yeyilgan narsadan tanaga quvvat bo'lishi Alloh marhamatidir. Bu quvvatni gunohga emas, toatga sarflash ayni ubudiyat bo'lishi bilan birga nasibaning farovon bo'lishi garovidir. Zero, shukr etish ne'mat ziyoda bo'lishiga boisdur.

Savol: Kuzatishimcha, ovqatlanish oldidan qo'llar yuvilgach, ba'zilar sochiqqa artadi, ba'zilar artmaydi. Qaysi biri to'g'ri?

Javob: «Xizona» kitobida bayon qilinishicha, ovqatlanishdan oldin qo'llar yuvilganida, yuvilganlik asarini ketkizmaslik uchun sochiqqa artilmagani yaxshi. (Bu tibbiy nuqtai nazardan ham to'g'ridir. Chunki qo'llar yuvilganida tuk ostilaridagi mikroblar tushib ketadi. Ko'plar foydalangan sochiqqa artilsa, darhaqiqat, yuvilganlik asari qolmaydi.)

Savol: Ba'zilarimiz taomni chap qo'l bilan yeymiz (ichamiz). Chap qo'lda narsa uzatib, chap qo'lda olamiz...

Javob: Bu hol sunnatga xilofdir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) bizlarga o'ng qo'l bilan taom yeyishni, narsani o'ng qo'l bilan olib, o'ng qo'l bilan uzatishni buyurganlar.

Savol: Xalqda «uvuz suti» deb ataladigan sutning bir turi bor. Ba'zilar uni ichsa bo'ladi, deydi, boshqalar ichish mumkin emas, deyishadi. Bu haqda dinimizda nima deyilgan?

Javob: Yangi tuqqan sigir, qo'y va shu kabi hayvonlarning sutlarini oqarmasdan ichish joiz emasdir, haromdir. Sababi shuki, unga qon aralashgan bo'ladi. Bunday sutning toza bo'lish muddatini ulamolarimiz uch kun deb ko'rsatishgan. Bu sut pishirilganda o'zgarishsiz pishsa, irib qolmasa, toza bo'lgan hisoblanadi («Fatovoi Jung», «Mabsuti Saraxsiy»dan naql).

Savol: Qozonda qaynab turgan sho'rvaga piyoz to'g'rayotganimda qo'limga pichoq tegib, bir-ikki tomchi qon qozonga tushdi. Nima qilishni bilmay qoldim. Shuning hukmini tushuntirsangiz.

Javob: Bunday holda agar qozondagi go'sht pishgan bo'lsa, sho'rvasi to'kib tashlanadi, go'shtini esa uch bor yuvib yeyish joizdir. Ammo qozondagi go'sht hali pishmagan bo'lsa, sho'rva bilan qo'shib tashlab yuboriladi («Naf'ul mufti vas-soil»).

Savol: «Salla mo'min bandalarning toji», deyishadi. Sizlardan iltimos, salla o'rashning shariatimizdagi hukmi va unga taalluqli masalalarni yoritsangiz.

Javob: «Sahihi Buxoriy»ning Badriddin Abu Muhammad Ayniy sharhida (10-juzi) salla haqida vorid bo'lgan hadislar keltirilgan. Jumladan, Abu Muso rivoyat qilgan hadisda salla o'rash sunnat ekanligi ta'kidlanadi.

Fuqaholar salla borasidagi masalalarni yoritib, bu borada quyidagilarga rioya etish sunnat, deydilar: sallaning matosi oq bo'lishi, uzunligi yetti gazdan kam bo'lmasligi (5 metr), tahorat bilan tik turib qiblaga yuzlanib o'rash, salla o'rayotganda salovot aytib turish, salla pechini uning pastki qismidan chiqarish, sallani o'rab bo'lgach, ko'zguda tekshirish.

Shuningdek, sallani tarqatishda (yozishda) uni bir yo'la tarqatib yubormay, o'ramlarni aylantirib tarqatish ham sunnat, deydilar fuqaholar.

Sallaning qora matodan bo'lishi mustahabdir. Chunki Payg'ambarimiz umrlarida bir bor qora salla kiygan ekanlar.

Mazkur kitobda quyidagi hadisi sharif vorid bo'lgan: «Hazrat Alining o'g'illari Hasan (Alloh ikkovlaridan ham rozi bo'lsin): «Men Rasulullohning (s.a.v.) minbarda qora salla kiyib, pechini ikki yelkalari o'rtasidan tushirganlarini ko'rdim», deb aytdilar».

Sallaning pechi chap kiftga emas, balki ortga, ikki yelka o'rtasiga tashlanadi. Bu sunnatdir. Pech miqdori uch tutam bo'lishi kerak.

Salla bilan o'qilgan ikki rakat namoz sallasiz o'qilgan yetmish rakat namozdan a'lodir.

Savol: Sotish niyatida xarid qilingan molning ustiga qancha narx qo'yib sotish mumkin?

Javob: Savdo molga belgilanadigan narxga qarab to'rt xildir:

1. Musovama.
2. Vazia.
3. Murobaha.
4. Tavliya.

Musovama savdosida molning oldingi bahosi e'tiborga olinmaydi. Xaridor sotuvchi bilan o'zaro tortishib, molni kelishuv asosida baholab oladi.

Vazia molni o'z bahosidan past narxda sotishdir.

Murobaha molni kelib tushish narxi ustiga ma'lum bir foyda qo'yib sotishdir. Bunda qo'yilgan foyda aniq aytiladi.

Tavliya molni kelib tushish narxida sotishdir.

Murobaha va tavliya savdolarida oldi-sotdi sohasida tajribaga ega bo'lmaganlar malaka hosil qiladi va savdo yo'llari bilan oshno bo'ladilar.

Shuni unutmashimiz lozimki, mol ustiga qo'yiladigan foyda miqdori muayyan qilib ko'rsatilmagan. Ammo ba'zi xaridorlarning g'o'rligidan foydalanib molni sotilayotgan qiymatidan oshirib sotish yoki sotuvchining soddaligi tufayli molni o'z qiymatidan arzonga olish (g'abni fohish) savdoni buzish huquqini beradi («Radd ul-muxtor»).

Kundalik xarid mollarda besh foiz, hayvonlarda o'n foiz va ko'chmas mollarda yigirma foizdan ortiq bahoga bay' berish g'abni fohish hisoblanadi («Sharhi Ilyos»).

Savol: Kishini mast qiluvchi giyohlar yoki aroq bilan oldi-sotdi qiluvchi musulmonga shariatimizda qanaqa hukm bor? O'zi musulmon bo'laturib spirtli ichimliklar ishlab chiqarish bilan shug'ullanishning hukmi nima?

Javob: Islomda aroq, yana shariat yo'l qo'ymagan narsalar bilan oldi-sotdi qilish va ularni ishlab chiqarish bilan shug'ullanish man qilingan. Alloh taolo shunday marhamat qiladi: «Bir-biringizga ezgulik va taqvolik yo'lida yordam beringiz, gunoh va zulm uzra hamkorlik qilmangiz!»

Shubha yo'qki, aroqni, narkotik moddalarni sotish – zulmga sabab bo'lish va gunohli ishlarda birovga hamkorlik qilishdir. Bu borada Payg'ambarimiz Muhammadning (s.a.v.) quyidagi hadislar bor: «Allohga va qiyomat kuniga ishongan kishi aroq ichmasin, Allohga va qiyomat kuniga ishongan kishi aroq ichilayotgan dasturxon oldida o'tirmasin».

«Alloh taolo aroqni, uni ichuvchini, quyib berganni, sotganni va olganni, uni tayyorlovchini, olib kelganni va buyurganni la'natlaydi».

Savol: Bemor ko'rishning ham o'ziga xos tartiblari bor, deb eshitdik. Shu haqda ma'lumot berolmaysizmi?

Javob: Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, mo'minlarning bir-birlarida haqlari oltita bo'lib, shulardan biri betob bo'lganida yo'qlashdir. Alloh taolo Qiyomat kuni aytadi: «Ey inson farzandi, betob bo'ldim, meni kelib ko'rmading». U odam aytadi: «Ey Rabbim, Sen butun olamning Parvardigori bo'laturib, men Seni qanday ko'rishim mumkin edi?» Alloh aytadiki: «Falonchi odamni betobligida borib ko'rmading-ku, agar borganingda uning oldida Meni topgan bo'larding!»

Qarindosh, qo'shni yoki do'stlaringizdan birovining xasta bo'lganini eshitganingiz zahoti uni yo'qlab ko'rgani boring. Bordi-yu, uning xastaligi og'ir bo'lsa yoki tabiblar

uning yoniga kirishni man qilgan bo'lishsa yoxud bu uni bezovta qiladigan bo'lsa, u holda hol-ahvolini uyidagilardan so'rash bilan qanoatlanavering.

Kasal ko'rgani borganingizda kasal yonida uzoq o'tirmang, ko'ngliga og'ir keladigan, qayg'uli so'zlarni gapirmang, xastaligiga sabab bo'lgan narsalardan saqlanmagani uchun tanbeh bermang, kasallikning og'irlashuvi yoki o'lim bilan qo'rqitmang.

Uning shikoyatlarini iloji boricha erinmay eshiting, peshonasiga qo'lingizni qo'ying, chiroyli so'zlar va sabrga da'vat etish bilan ko'nglini ko'taring, oz kunlarda shifo topib, bardam bo'lib ketishiga tilak bildiring. Alloh taolodan uning salomatligini tiklashni so'rab duolar qiling.

Savol: G'iybat dinimizda man etilgan narsalardan ekanligi ma'lum. Ammo do'stlarimizdan biri g'iybat qilsa ham bo'ladi, deb aytib qoldi. Shu to'g'rimi?

Javob: Faqih Abu Lays Samarqandiy g'iybat haqida shunday deydilar: «G'iybat to'rt turlidir: kufr, nifoq, gunoh va muboh. Birodarini g'iybat qilayotgan kimsaga g'iybat qilma, deyilganida, kimsa: «Bu g'iybat emas, haqiqatni aytyapman», desa, Alloh taolo harom etgan narsani halol hisoblagan bo'ladi. Haromni halol hisoblash kufrdir.

Munofiqlik hisoblangan g'iybat – shaxs nomini tilga olmay, o'zini yaxshi ko'rsatib kishilar huzurida g'iybat qilish. Vaholanki, ular kimni nazarda tutayotganini bilishadi.

G'iybat qilish mumkin emasligini bilaturib muayyan shaxsni tilga olib g'iybat qilish gunohdir. Bunga muhtalo bo'lgan kimsa istig'for aytishi zarur.

Fosiqni yo bid'atchini kishilar bilib qo'ysin, deb gapirish muboh bo'lgan g'iybatdir. Bu holda kishilarni ogoh qilgani uchun «g'iybatchi» ajr ham oladi».

Sizning do'stingiz g'iybatning bu turini nazarga olganligi muqarrardir.

Savol: Kiyinish, ovqatlanish kabi ishlarda erkaklarga ayrim narsalar taqiqlangan, deb eshitdim. Ular nimalardan qaytarilgan?

Javob: Islom shariati kiyinish, ovqatlanish va xoli-hayotning boshqa sohalarida erkaklarga bir qancha ishlarni man etgan. Masalan, Rasuli akramdan (s.a.v.) shunday hadis vorid bo'lgan: «Kerilib pochasini (shimini) sudrab yuruvchiga Alloh taolo nazar qilmaydi».

Erkaklarning shim, ishton, ko'ylak va boshqa kiyimlarini oshiqdan pastga tushirib kiyimlari nojoiz.

Erkaklarga ipak kiyim kiyish ham taqiqlangan, oxiratdan nasibasi yo'qlargina ipak kiyim kiyadilar. Lekin arqog'i ip bo'lsa, mumkin, deyishadi ba'zi ulamolar.

Tilla asboblari (masalan, uzuk) taqish ham, tilla idishlarda ovqat yeyish ham man etilgan. Lekin kumush bilan ziynatlangan idishda ichimlik ichish, u bilan ziynatlangan egar yoki kursida o'tirish mumkin. Erkaklarning misqolga yetmagan kumush uzuk taqmoqliklari zararsiz. Ayollarga ipakli kiyim kiyish va tilla asboblari taqish mumkin.

«Rasululloh (s.a.v.) ayol kiyimini kiygan erkakni va erkak kiyimini kiygan ayolni la'natlaganlar». Demak, erkaklarning ayollar kiyimini kiyishlari shariatimizga mutlaqo zid ekan. Shuningdek, ularning kofirlar kiyinishiga taqlid qilishi, qizil va sariq rangli, xarir, yupqa kiyimlar kiyishi, shuhrat niyati bilan yasanishi, isrofgarchilikka yo'l qo'yishi ham yaramaydi.

Shuningdek, Rasululloh (s.a.v.) erkaklarni zino qilishdan, ichkilikbozlikdan, qimor va nard o'ynashdan, kaptarvozlikdan, bangichilikdan va boshqa gunoh bo'ladigan yomon amallardan qaytarganlar.

Savol: Bir do'stimiz: «Aksirish yaxshi-yu esnash yomon», deb qoldi. Shu gapda jon bormi?

Javob: Payg'ambar alayhissalomdan rivoyat qilinishicha: «Albatta Alloh taolo aksirganlarni yaxshi ko'radi va esnaganlarni yomon ko'radi. Bironta musulmon aksirib Allohga hamd aytganda, buni eshitgan har bir musulmonning «Yarhamukalloh», deb javob qaytarishi uning gardanidagi burchidir. Esnash esa shaytondandir. Birontangiz esnamoqchi bo'lsangiz, toqatingiz yetguncha qaytaring, chunki esnasangiz, shayton ustingizdan kuladi».

Demak, musulmonlar aksirsalar, «Alhamdulillah», deya Allohga hamd (shukr-maqtov) aytishlari, bunga javoban esa boshqalar «Yarhamukalloh» («Alloh rahm-shafqat qilsin»), deyishlari kerak. Bunga javoban esa aksirgan kishi «Yahtikumullohu va yuslih bolakum» («Alloh hidoyatga boshlasin va qalbingizni isloh qilsin»), deydi. Chunki aksa urish bemorlik alomati emas, tani sog'lik belgisidir. Boshqa dindagilar esa kasallik alomati, deb «Sog' bo'ling», deydi. Biror musulmon aksa urib Allohga shukr aytsa, unga uch martagacha javob qilinadi, ortig'iga javob yo'q, chunki ortig'i tumov belgisi bo'lishi mumkin.

Payg'ambarimiz alayhissalom aksirganlarida qo'l yoki etaklari bilan og'izlarini berkitardilar. Bu yaxshi odat. Chunki aksirganda og'izdan tupuk sachrashi yoki ovoz qattiq chiqib, atrofdagilarni cho'chitishi mumkin.

Rasulullohdan (s.a.v.) shunday rivoyat qilingan: «Oralaringizdan bironta kishi esnasa, qo'li bilan og'zini berkitsin, chunki shayton og'ziga kiradi». Shuning uchun esnoq kelganda, iloji boricha qaytarish kerak. Qaytarmasangiz, chap qo'l bilan og'zingizni yoping. Esnaganda aslo uvillamang, ovozingizni ko'tarmang, chunki shayton ustingizdan kuladi.

Savol: Keyingi paytlarda pulni foiz bilan qarzga berish (sudxo'rlik) avj olyapti. Buning shar'iy hukmi qanday bo'ladi?

Javob: Sudxo'rlik Qur'oni karim hukmi bilan qaytarilgan amallardan bo'lib, u bilan shug'ullanish ulkan gunohdir. Sudxo'rlik (ribo) – bir kishi ikkinchi kishiga ishlatish uchun qarzga pul berib, uni oshig'i, foizi bilan qaytarib olishidir. Masalan, ming so'm pul berib, bir ming bir yuz qilib qaytarasan, deyish. Har qanday pul mehnat bilan topilishi kerak, shuning uchun ribo eng katta gunoh va Alloh ribo yemaslikni buyurgan. Qur'oni karimda ochiq-oydin: «Ey mo'minlar, (bergan qarzlaringizni) bir necha barobar qilib olish bilan sudxo'rlik qilmangiz. Allohdan qo'rqingiz! (Shunda) shoyadki, najot topgaysiz!» deyilgan. Yana Qur'oni karimda bay' (oldi-sotdi)ni sudxo'rlikning o'zi, deb da'vo qilganlar Qiyomat kuni jin chalgan majnun kabi turishlari haqida ogohlantiriladi. Chunki Alloh bayni halol, sudxo'rlikni harom qilgan.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) ribo yeydigan va shuni yeyishga sabab bo'lgan kishilarning hammasiga la'nat aytganlar. Imom Termiziyning rivoyatlarida esa sudxo'rlikka guvoh bo'lgan kishilarga, ya'ni «Falonchi pistonchidan shuncha qarz oldi, falon muddatga ustiga shuncha qilib qaytarishi lozim», deb hujjatlashtirib bergan kishiga ham la'nat aytiladi.

Savol: Oilada er va xotinning vazifalari nimalardan iborat?

Javob: Erning vazifalari quyidagilar:

1. Ayolning mahrini berish. Nikoh aqdi tuzilayotganda mahr unutilsa ham, ayol unga haqli bo'laveradi.
2. Nafaqa. Sahih uylanish bitimi erni xotinning asosiy ehtiyojlarini qondirishga burchli qiladi.
3. Birdan ziyod uyli bo'lsa, o'rtalarida adolat qilish.

4. Tinch-totuv yashash, yaxshi muomalada bo'lish.

Xotinning vazifalari quyidagilar:

1. Turmushga chiqqan xotin eridan boshqaga haromdir. Boshqa bilan nikohdan o'tmaydi.

2. Xotin eridan shartlashgan mahrni olsa, uning uyiga boradi va unga bo'ysunib, tobe bo'ladi.

3. Islom joiz ko'rgan holatlardan boshqasida faqat er izni-la tashqariga chiqishi mumkin.

4. Erining Islomga zid bo'lmagan istaklarini ado etadi.

5. Erining Islom doirasidagi tarbiya haqqini qabul qiladi.

Savol: Kimlar bilan nikohlanish harom?

Javob:

1. Nasl-nasab va avlod jihatidan nikohi harom bo'lgan ayollar:

a) ona, ota-onaning onalari, buva-buvilarning onalari va hokazo;

b) qizlar, o'g'il-qizlarning qizlari va barcha qiz nabiralari;

v) opa-singillar, aka-uka va opa-singillarning qizlari, qiz nabiralari;

g) ammalar, xolalar, ota-onaning amma-xolalari. Ularning qizlariga uylanish mumkin.

2. Nasl-nasab va avlod jihatidan nikohi harom bo'lgan erkaklar:

a) ota, ota-onaning otalari, buva-buvilarning otalari va hokazo;

b) o'g'illar, o'g'il-qizlarning o'g'illari va barcha o'g'il nabira-chevaralar;

v) aka-ukalar, aka-uka va opa-singillarning o'g'illari, o'g'il nabiralari;

g) amakilar, tog'alar, ota-onaning amaki-tog'alari. Ularning o'g'illariga nikohlanish harom emas.

Savol: Bola qancha emiziladi?

Javob: Bolani emizish muddati Imomi A'zamning fikrlari ko'ra, ikki yarim yildir.

Allohning rasuli (s.a.v.): «Bola sutdan ayrilgach, emikdoshlik sobit bo'lmaydi», deganlar. Hadisdagi «sutdan ayrilish»dan murod muddatdir. Ya'ni, ikki yarim yoshga yetmagan bola sutdan ayrilgan bo'lsa-da, emikdoshlik sobitdir. Ammo ikki yarim yoshdan oshganidan keyin boshqa onani emsa, emikdoshlik sobit bo'lmaydi («Hidoya»).

Savol: Qarindoshga uylanishning noqulay tomonlari bormi?

Javob: Amma, tog'a, xola va amakilar mahram, ammo ularning farzandlari nomahram bo'ladi. Demak, xolavachcha, amakivachchalar o'zaro nikohlanishlari shar'an haloldir.

Ammo begonalarga qaraganda qarindoshlarga uylanishning ba'zi xavfli va noqulay tomonlari bor. Ma'lumki, farzandning sog'lom va baquvvat tug'ilishida er-xotinning bir-biriga mehr-muhabbatli va kuchli jinsiy istakda bo'lishlari g'oyat ahamiyatlidir. Zero, Payg'ambarimiz ham erkaklarga jinsiy aloqa chog'i shoshilmaslikni, xotinlarini qondirishga harakat qilishni tavsiya etganlar. Ba'zan shunday bo'ladiki, amakivachchalar bir hovlida voyaga yetishadi, bir-birlarini juda yaqin his qilishadi, binobarin, ularda bir-birlariga nisbatan jinsiy mayl ba'zan umuman bo'lmaydi. Shuningdek, qarindoshlar orasida emikdoshlik ko'p uchraydi. Mana shu ikki jihat farzandlarning nogiron tug'ilishiga sabablardan asosiylaridir.

Bugungi ilm-fan bolaning nuqsonli, nogiron tug'ilishiga asosiy sabab qilib qarindoshlarga, ya'ni amakivachcha, xolavachcha, tog'avachchalarga nikohlanishni ko'rsatmoqda. Qon o'xshashligi tufayli tug'ilgan kelishmovchilik qarindoshlar orasida

ko'proq uchrashi do'xtirlarning shunday xulosaga kelishlariga sabab bo'lgandir. Ammo ular emikdoshlik masalasini yoddan chiqarmoqdalar. Bu xususga noxolis yondoshayotganlar Islomning fikrini ham bir o'ylab ko'rsalar, haqiqatga yaqinlashgan bo'lar edilar. («Ayollar fiqhi» kitobi asosida tayyorlandi.)

Savol: Uylanish uchun kerak bo'lgan imkoniyat chegarasi nima?

Javob: Yigit uchun daromadi va mavqeiga yarasha o'ziga munosib uyga ega bo'lishga yetarli mol bo'lishi kifoyadir. Ammo mahr va toqatdan ortiqcha uy anjomlarini ko'paytirish hamda qiynab qo'yadigan narsalarni o'ziga yuklashi ma'qul emas va unda yaxshilik yo'qdir.

Savol: Yigit va qizga turmush qurishga shoshmaslik uchun yordam berishga hadisi sharifda zikr qilingan ro'zadan boshqa yo'llar bormi?

Javob: Ha, bir qancha yo'llar bor. Begona ayollarga nazar qilishdan ko'zni to'sish, Qur'oni karimni ko'p tilovat qilish, buzuq kinolarni ko'rmaslik, jinslar haqidagi kitob va qissalarni o'qimaslik shular jumlasidandir.

Savol: Qizni ota-onasi berishni istamasa, olib qochsa bo'ladimi?

Javob: Yo'q. Bu biror holda ham mumkin emas. Bu sharaftga nomunosib va shariat hukmiga zid ishdir.

Savol: Yigit bir qizni yoqtirib qolsa, unga «Menga yoqib qolding», «Men seni yaxshi ko'raman», «Senga sovchi yuboraman», deyishi mumkinmi?

Javob: Ha, mumkin. Qiz ham yigitga shunday desa bo'ladi.

Savol: Unashganlik belgisi sifatida mashhur bo'lgan uzuk taqishning hukmi nima?

Javob: Yigit va qizning unashtirilganligi yo turmush qurganligi alomati sifatida taqiladigan uzukni musulmonlar oldin bilmaganlar. Ammo u tilladan yo kumushdan bo'ladimi, ayollar uchun ziynat va bezak niyatida joiz. Erkakka esa tilla uzuk taqish mutlaq mumkin emas. U kumush uzuk taqsa bo'ladi. Lekin taqmasligi munosibdir.

Savol: Kelinga beriladigan mahr bilan qalin pulining nima farqi bor?

Javob: Islomda qalin umuman yo'q, balki qalindan tubdan farq qiladigan «mahr» bor. Mahr – o'zi rozi bo'lib oila qurishga ixtiyor qilgan qizga kuyovning ko'nglidan chiqarib beradigan hadyasi, sovg'asi. Ehtimol, u tilla taqinchoqlar bo'lar, balki chiroyli ko'ylaklar yoki javon bo'lar – buni kelin-kuyovning o'zlari belgilashadi. Bu – kelinning shaxsiy daxlsiz haqi, mulki bo'ladi. Ota-onasi, yaqinlari bunga aslo aralasholmaydi yoki egalik qilolmaydi ham. Mahr belgilashdan maqsad – bo'lajak kelinlarimizni hurmatlash, e'zozlash, ular shunday sovg'alarga, xursandchilikka sazovor shaxslar ekanini tasdiqlashdir. Shuningdek, bu – nikohdan o'tib halol turmushga qadam qo'ygan baxtli kunlaridan bir yodgorlik hamdir. Qolaversa, mahr – kelinning o'z ota-onasi uyini tark etib, bo'lajak oilasiga ko'chib borishga, o'zi nikohdan o'tayotgan kishi bilan ahli ayol sifatida yashashga rozi bo'lgani uchun chin ko'ngildan beriladigan sovg'adir. Alloh taolo Qur'oni karimda shunday buyuradi: «Xotinlaringizga mahrlarini hadya kabi (ya'ni, chin ko'ngildan, mamnunlik bilan) beringiz!» (Niso surasi, 4-oyat).

Lekin bugungi kunda Islomning ana shu ajoyib an'anasiga rioya qilinmayapti. Ba'zi joylarda «sut puli», ba'zi yerlarda «qalin puli» deb nomlangan, aslida o'zi bid'atdan

iborat bo'lgan oldi-berdilarning Islom dini belgilab bergan mahrga hech qanday aloqasi yo'q.

Mahr ham me'yordan, haddidan oshmasligi kerak. Rasululloh (s.a.v.): «Mahri oz kelinning barakoti ko'p bo'ladi», deganlar. Mahrning yuqorisi yo'q – kuyovning imkoniga, ko'nglidan chiqqaniga qarab belgilanadi. Qizimizni «qimmatroqqa sotish»ni o'ylamay, buning o'rniga unga Allohdan baxt-saodat, qo'sha-qo'sha farzand, oilasiga qut-baraka so'rab, duoda bo'lishimiz a'lo emasmi?!

Yana bir noto'g'ri holat borki, nikoh paytida qizning mahrini aniq belgilamay, «Mahriga bitta uy va ayvon, sigiri bilan», deb qo'yish odatga kirgan. Buni kelin-kuyov tushunmaydi ham. Oqibatda kelinlarimizning haqqi poymol qilinadi. Nikoh paytida guvohlar ishtirokida mahrni aniq belgilab, kuyovga uni esdan chiqarmaslikni ta'kidlab qo'yish kerak.

Savol: Shariatimizda qaysi hollarda ayolini taloq qilishga ruxsat berilgan?

Javob: «Taloq» so'zi lug'atda «biror narsani bo'shatib qo'yish» ma'nosini anglatadi. Shariatda esa eru xotinlik bog'lanishini ochiq yoki kinoya iboralari («Sen taloqsan» yoki «Sen menga haromsan» kabi) bilan bo'shatishga aytiladi.

Er-xotin nikoh bilan bog'lanib oila quradi. Lekin fe'l-atvorlari bir-biriga to'g'ri kelmaslik, farzand ko'rmaslik kabi sabablar tufayli ajralishga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Taloqqa ruxsat bermaslik inson tabiatiga qarshi hukmdir. Islom shiati shuning uchun ayolni qiynamaslik uchun erkakka «taloq», ayni choqda ayolga «xulu'» haqqini berdi. Ya'ni, ayol kishi eri bilan yashashni xohlamasa, qoziga ariza berib ajrab keta oladi.

Ammo taloq eng oxirgi choradir, noiloj nuqtadir. Payg'ambar alayhissalom: «O'zi halol-u, lekin Alloh eng yomon ko'rgan narsa taloqdir», deganlar. Biror joyda taloq sodir bo'lsa, Allohning arshi larzaga keladi. Demak, ayolingiz bilan g'ijillashib qolganda, jahlingiz chiqqanda yoki sarxushlikda bo'lar-bo'lmasga «taloq» so'zini tilga olish yaramaydi. Chunki mazhabimiz talabiga ko'ra uch marta taloqdan so'ng er-xotin nikohi butunlay ajratib yuboriladi.

Ayol uch hayz ko'rishi miqdorida idda o'tirgandan so'nggina boshqa kishiga turmushga chiqishi mumkin. Taloq qilingandan keyin er ayolning iddasi chiqquncha taom, kiyim, maskan ko'rinishida unga nafaqa qilib turadi: taloq qilingan ayol agar homilador bo'lsa, er u to tuqqunicha nafaqa bilan ta'minlab turadi. Agar ayol taloq qilgan eridan bo'lgan bolani emizsa, agar xohlasa, ana shu emizgani uchun haq oladi.

Alloh taolo amr qilib aytadiki, taloq qilingan ayollaringizni o'zingiz yashab turgan maskanda yashashiga imkon yarating, ya'ni «taloq bo'ldi», deb maskaningizdan chiqarib yubormang. Shariatimizda ajralayotgan ayolga er tomonidan sovg'alar berish ham joriy qilingan.

Savol: Yangi tug'ilgan chaqaloqning qulog'iga azon aytilishi haqida shariatimiz nima deydi?

Javob: Musulmonlar o'z farzandlariga chiroyli ism qo'yishlari, xatna qilishlari kabi azon aytib «quloq»larini ochish sunnat amallardan hisoblanadi.

Azon aytishdan murod chaqaloqning qulog'ida ilk bor Alloh va Uning rasuli nomlari yangrashi, qolaversa, musulmonchilikda zurriyotlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, bunda uni islomiy axloq ruhida tarbiyalash kerakligiga ishorat bor.

Hadisi sharifda qulog'iga azon va iqomat (takbir) aytilgan bolaga jin zarar yetkaza olmaydi, deyiladi. Imom Termiziy va boshqa muhaddislar Rasulullohning (s.a.v.) nabiralari Hasan ibn Aliga (r.a.) azon aytganlarini rivoyat qilishgan.

Chaqaloqqa aytiladigan azon va iqomat namozniki kabi bo'ladi. Azon aytuvchi qiblaga yuzlangan holda chaqaloqning avval o'ng qulog'iga azon, chap qulog'iga esa iqomat aytadi. So'ng yangi farzand haqqiga duolar qilinadi.

Savol: Yaqinda farzand ko'rdik. O'g'limizga qanday ism qo'ysak, islomiy yo'l tutgan bo'lamiz?

Javob: Sir emaski, hozirgi kunda farzandlariga urfdagi, zamonaviy ismlar qo'yishga intiladigan ota-onalar ham yo'q emas. Shuning oqibatida Shavkat (sanchqi), Diyor (o'lka), Toshpo'lat, Sherzod, Gulrang kabi tumtaroq ismlar ko'payib boryapti. Vaholanki, dinimiz ko'rsatmasiga ko'ra farzandiga chiroyli ism qo'yish ota-ona uchun sunnatdir.

Ular farzandlariga Alloh taolaga qulchilikni ifodalovchi, Rasululoh, ulug' sahobiyalar, allomalar, solih kishilarning ismlarini qo'yishsa, g'oyat maqbul bo'lardi. «Abdu», «Muhammad» qo'shilgan ismlar eng yaxshi ismlar hisoblanadi.

Farzandiga chiroyli islomiy ismlar qo'yish har bir ota-onaning bolalari oldidagi burchidir. Rasululoh (s.a.v.): «Siz qiyomat kuni o'z ismingiz va otalaringizning ismi bilan chaqirilasiz, shunday ekan, bolalaringizga chiroyli ismlar qo'yinglar», deya marhamat qilganlar.

Agar-da bolaga islomiy bo'lmagan ism qo'yilgan bo'lsa, uni o'zgartirish mumkin. Islomga mos kelmaydigan ismlarni Rasululloh (s.a.v.) ham o'zgartirganlar.

Savol: Bolaga Abdurasul yo Abdunabi deb ism qo'yish mumkinmi?

Javob: Yo'q, mumkin emas. «Abdu», «qul» so'zlarini «Alloh» ismidan boshqa so'zga qo'shib ism qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaga Abdurasul, Xo'jaqul, Eshonqul kabi ismlar berish durust emas («Sharhi fiqhul akbar», Ali al-Qori).

Savol: Bir kitobda Jabroil va Azroil ismli farishtalar haqida o'qidim. Farishtalar o'zi kimlar?

Javob: Allohning farishtalari (malaklar)ga imon keltirish imonning asosiy shartlaridan biridir. Farishtalarni Alloh taolo ko'zga ko'rinmaydigan qilib jismlarini nurdan yaratgan. Ular qiyomatga qadar Allohga ibodat qiladilar, buyurilgan har xil xizmatlarini ado etib turadilar, keyin o'lim sharbatini totadilar. Ular hech gunoh ishlarni qilishmaydi, ularda bizdagi kabi yemoq-ichmoq, uxlamoq, so'zlashmoq, zerikish kabi narsalar, erkaklik va xotinlik ham yo'q. Ular har xil suratda yaratilgan va turli suratga ham kira oladilar.

Farishtalardan ulug'lari Jabroil, Azroil, Mikoil, Isrofil. Hazrati Jabroil Allohning kalomini payg'ambarlarga yetkazishda vositachilik qiladi. Azroil ajali yetgan bandalarning jonini oladi. Mikoil – rizq ulashtirguvchi, Isrofil esa – Qiyomat boshlanganidan darak berib sur chalguvchi farishtadir.

Farishtalar son-sanoqsiz bo'lib, yerda, osmonda va har ikkovining o'rtasida yurishadi. Ularning sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Islom shariatiga ko'ra, insonni farishtalar qo'riqlab va nazorat qilib turadilar. Alloh taolo Ra'd surasining 11-oyatida aytadiki: «Uning oldida ham, ortida ham ta'qib qiluvchilar bor. Ular uni Allohning amri ila hifz qilib turadilar». Ya'ni, bandaning har tarafida kuzatib yuruvchi farishtalar mavjud. Ular ikki ishni bajarishadi, ya'ni bandani turli yomonliklardan saqlab turadilar hamda gunoh va savob amallarini yozib boradilar.

Savol: Tushda noxush narsa ko'rsa, nima qilish kerak?

Javob: Abdurahmon ibn Sa'iddan shunday rivoyat etiladi: «Yaxshi tush Alloh taolodandur, kimki yaxshi tush ko'rsa, uni faqat o'zi yaxshi ko'rgan odamlarga aytsin, basharti yomon tush ko'rsa, uning va shaytonning yomonliklaridan Alloh taolodan panoh

tilab, uch bora (chap tarafiga) tupurib qo'ysin hamda ko'rgan tushini hech kimga aytmasin. Shunday qilsa, tushi zarar keltirmagaydir!»

Abu Sa'id al-Xudriy rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Qaysi biringiz yaxshi tush ko'rsangiz, u Alloh taolo tarafidan sizga marhamat qilingan bo'lib, darhol turib Rabbingizga munosib hamdu sanolar aytingiz va tushingizni (o'zingiz sevgan kishiga) so'ylangiz! Basharti yomon tush ko'rsangiz, bilingkim, ul shaytondan sodir bo'lgandir. Darhol turib shaytonning yomonligidan Alloh taolodan panohtilangiz va uni birovga aytmangiz! Shunday qilsangiz, tushingiz zarar keltira olmaydur!» deydilar». Imom Buxoriy rivoyatlari.

Tush haqida aytilganki, u go'yo parrandaning oyog'iga yopishib qolgan loyga o'xshaydi. Qush tepaga ko'tarilganida o'sha yopishgan loylar tushib ketadi. Shu kabi tush ham birovga aytilmasa, hech qanday zarari tegmay, o'tib ketadi.

Yaxshi va yomon tushlar bo'ladimi?

Masjid-madrasalarda yurish, havoda uchish, suvda suzish rahmoniy (yaxshi) tushlardir. Qabrlar, o'tlar orasida, so'yilgan go'shtlar-u iflos joylarda yurish shaytoniy (yomon) tushlardir. Ba'zi rivoyatlarda bog'u bo'stonlarda yurish, do'stlar davrasida suhbat qurish, inson xursand bo'ladigan narsalarni ko'rish ziyoda umrdan hisob qilinadi, deyilgan. Abu Sa'id al-Xudriyning rivoyat qilishicha, Rasululloh (s.a.v.): «Eng rost tush sahar vaqtida ko'rilgan tushdir», deganlar.

Savol: Ayrim kishilar uylariga isiriq, mashinalariga tumor va ko'zmunchoq osib qo'yishadi. Ularning foydasi bormi?

Javob: Xalqimizning ayrim qatlamlari orasida ishining rivoj topishi yoki savdosining yurishi uchun isiriq tutatish, balo-qazolardan va ofat-falokatlardan himoyalaniish uchun kiyimlariga, uloviga tumor va ko'zmunchoq osish, uylariga isiriq, hayvonlarning shoxini ilib qo'yish kabi irim-sirimlar bor. Bularning barchasi Islomda yo'q narsalar bo'lib, ularga ixlos qo'yish va amal qilish shirkdan boshqa narsa emas.

Islom aqidasi boshga keladigan barcha yaxshilik-mushkulotlar faqat Allohdan bo'lishini, balo-qazo va ofat-falokatlardan faqat yolg'iz Alloh taoloning O'zigina asrashga qodirligini, har bir inson taqdiri ilohiysida nima yozilgan bo'lsa, shuni albatta ko'rajagini uqtiradi.

Demak, nima ishga kirishmoqchi bo'lsangiz, «Bismilloh» bilan boshlab, Alloh taolodan uning rivojini, barakotini, oxiri xayrli tugashini so'rang. Ko'chaga yoki safarga ketayotib, Uning O'zidan panoht va omonlik-ofiyat tilang. Har xil balo-qazo, ofat-falokatlardan, turli kasalliklardan panohida asrashni faqat Allohning O'zidan so'rang. Buning uchun Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar orqali juda ko'p duolar kelganki, ana shularni muntazam o'qib yursangiz, kifoya. Yana qaytarib aytamiz, isiriq, tumor va ko'zmunchoq kabi narsalar sizni hech narsadan asramaydi, hech narsada sizga yordam berolmaydi.

Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qilingan hadislarda quyidagicha aytiladi: «Allohga suyanish o'rniga boshqa sehru jodu, tumorlarga ixlos qo'ygan kishini Alloh o'z holiga tashlab qo'yadi (ya'ni, yordam bermaydi)», «Azayimxonlik, tumor taqmoqlik va sehr-jodu bilan shug'ullanmoqlik Allohga shirk keltirish bilan barobardir».

Savol: Gohida «Falonchiga ko'z tegibdi», degan gaplarni eshitib qolamiz. Ko'z tegishi bor narsami?

Javob: Islom dini ko'z tegishini bor, deb hisoblaydi. Chunki bu haqda Rasuli akramdan (s.a.v.) bir necha hadisi shariflar vorid bo'lgan. Imron ibn Husaynning aytishicha, Rasululloh (s.a.v.): «Ko'z tekkan va chayon chaqqandan boshqaga dam

solish yo'q», deganlar. Ubayd ibn Rifoat az-Zuraqiyning rivoyat qilishicha, Asmo' binti Umays unga shularni aytgan: «(Men) «Yo Rasululloh! Ja'farning bolalariga tez-tez ko'z tegadi, ularga dam solaymi?» dedim. Rasululloh: «Ha, agar taqdirdan oldin biron narsa keladigan bo'lsa, o'sha ko'z tegishidir», dedilar».

Haqiqatan o'tmishda (hozirda ham) yurib ketayotgan odamni «yiqita oladigan», soppa-sog' odamning mazasini bir pasda qochirib qo'yadigan, hayvonlar o'limiga sabab bo'ladigan, hattoki toshni ham yora oladigan «ko'zli» odamlar bo'lgani sir emas. Zamonaviy fan buni kishida manfiy bioquvvatning kuchliligi bilan izohlaydi.

Xo'sh, ko'z tegishi bor narsa ekan, undan qaysi yo'l bilan najot topish mumkin? Ayrimlar qilayotganday ko'zmunchoqlar, tumorlar osib olish, isiriq tutatish, ko'z tikanni ilib qo'yish bilan ko'z tegishdan panoh topib bo'lmaydi. Ko'z tegishning «muolajasi» haqida Rasulullohdan rivoyat qilingan hadislar borki, ularni bilib qo'yish zarur. Anas ibn Molikning rivoyat qilishlaricha, Rasululloh (s.a.v.) chayon chaqqanda, ko'z tekkanda va yonboshga mayda yarachalar toshganda dam solishga ruxsat berganlar. Abu Sa'id al-Xudriyning rivoyat qilishlaricha, Rasuli akram (s.a.v.) jinlardan qo'rqishda va ko'z tekkanda dam solardilar, Falaq va An-nos suralari nozil bo'lgach, shularni o'qib dam solganlar. Ibn Abbosning aytishlaricha, Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday deganlar: «Agar biron narsa taqdirdan oldin keladigan bo'lsa, o'sha narsa ko'z tegishidir va agar sizdan «g'usl qiling», deb talab qilsalar, g'usl qiling». (G'usl qilganda tekkan ko'z bekor bo'ladi).

Savol: Jinlar bor narsami?

Javob: Jinlar inson ko'ziga ko'rinmaydigan g'aybiy narsa bo'lib, u haqiqatan mavjud maxluqdir. Alloh taolo va Uning payg'ambari xabar bergan, ammo bizga ko'rinmaydigan narsalar g'aybiy sanalib, ularga imon keltirish islomiy aqidaning asosi hisoblanadi va har bir musulmon bunga imon keltirishi lozim.

Jinlarning mavjudligiga Qur'oni karimda dalillar ko'p: «Ey Muhammad, eslang, Biz sizning oldingizga bir guruh jinlarni Qur'on tinglasinlar, deb yuborgan edik» (Ahkof surasi, 29-oyat); «Ey jin va ins jamoasi! Agar sizlar (Allohning jazosidan qochib) osmonlar va yer chegarasidan o'tib ketishga qodir bo'lsangizlar, u holda o'tib ketaveringlar» (Ar-Rahmon surasi, 33-oyat); «Albatta insdan bo'lgan (ayrim) kishilar jindan bo'lgan kimsalardan panoh tilashib, ularga yanada haddan oshishini – muttahamlikni ziyoda qilur edilar» (Jin surasi, 6-oyat).

Jinlarning mavjudligi va ularning tabiati haqida Payg'ambarimiz Muhammaddan (a.s.) ham bir necha hadislar rivoyat qilingan. Imom Muslim ibn Mas'uddan (r.a.) ushbu hadisni rivoyat qiladilar: «Biz bir tun Rasululloh (s.a.v.) bilan birga edik, u kishini yo'qotib qo'ydik... Tong otganda esa u zot Xiro tomondan keldilar. Biz: «ey Rasululloh, biz sizni yo'qotib qo'yib izladik, lekin topa olmadik va eng yomon tunimizni o'tkazdik», dedik. Shunda Rasululloh: «Menga jinlarning da'vatchisi keldi, u bilan jinlarning oldiga bordik. Men ularga Qur'on o'qidim», dedilar».